

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

ARXIVSHUNOSLIK YO'NALISHI

MAMADALIYEVA MAXLIYO RAXMATULLO QIZI

BUXORO AMIRLIGINING DAVLAT MUASSASALARI FAOLIYATI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: katta o'qituvchi
To'xtabayev A'zamjon Sharipxo'jayevich

NAMANGAN – 2016

M U N D A R I J A

KIRISH.....	3
I BOB. O’RTA OSIYODA DAVLAT MUASSASALARI VA ULARNING DAVLAT BOSHQARUVIDAGI O’RNI.....	7
1.1. O’zbekiston hududida davlat muassasalarining tashkil topishi.....	7
1.2. Buxoro amirligining tashkil topishi va davlat boshqaruvi.....	12
II BOB. BUXORO AMIRLIGI DAVLAT MUASSASALARINING TASHKIL TOPISHI VA FAOLIYATI.....	23
2.1. Buxoro amirligini markaziy va mahalliy boshqaruvida faoliyat yuritgan davlat muassasalari.....	23
2.2. Buxoro amirligida harbiy, diniy va sud sohasidagi davlat muassasalari faoliyati	38
XULOSA.....	47
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI.....	49

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi. Turkiy urug'lardan bo'lgan mang'itlar hukmronligi davrida Buxoro amirligining davlat tizimini, boshqaruv tartiblarini, sud va sudlov masalalarini hamda mang'it hukmdorlarining tashqi diplomatik, siyosiy va madaniy, savdo-sotiq, harbiy munosabatlarini o'rganish o'zbek milliy davlatchiligi tarixini to'laroq yoritishga katta hissa qo'shishi shubhasizdir.

O'zbek xalqining qadim davlatchilik tarixiga, uning barcha bosqichlari va davrlariga xolis, haqqoniy baho berish, tarixiy adolat nuqtai nazaridan yoritish oldimizga turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Zero, Prezidentimiz I. A. Karimovning "Tarixga murojaat qilar ekanmiz, u xalq xotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak. Xotirasiz barkamol kishi bo'lmaganidek, o'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi"¹ degan fikrlari davlatchilik masalalari bilan bevosita shug'ullanuvchi olimlar oldiga katta vazifalarni yuklaydi.

Buxoro amirligining XIX asr oxirgi o'n yilliklari – XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy tarixini, davlat boshqaruvini, diniy-huquqiy va harbiy boshqaruv masalalarini o'rganish bizga muhim xulosalarni chiqarishga imkon beradi.

Mavzuning dolzarbligi va muhim tarixiy manbalarning mavjudligiga qaramasdan, Buxoro amirligining davlat muassasalari tizimi faoliyati yetarlicha o'rganilmagan. Milliy davlatchiligimiz tarixini o'rganishga jiddiy e'tibor berilayotgan hozirgi kunda bugungi davr talai asosida Buxoro amirligining davlat muassasalari tizimi faoliyati, markaziy va mahalliy boshqaruv tartiblari, oliy tabaqa amaldorlar va quyi ma'muriy birliklar boshliqlarining, harbiy-ma'muriy va diniy amaldorlarning davlat boshqaruvidagi o'rniga doir ilmiy asarlarga ehtiyoj kattadir.

Sobiq sho'ro davri davlatchiligida bunday masalalar bir tomonlama, o'sha davrda hukmron mafkura manfaatlari va talablari nuqtai nazaridan yoritilgan edi. Shu sababli ham bu mavzuni to'liq va batafsil yoritilgan deb aytib bo'lmaydi.

¹ Abdurahimova N. A. va boshq. Davlat muassasalari tarixi. Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent: Sharq, 2007. – B. 118.

Buxoro amirligida yetakchi o'zbek urug'lari, xususan, mang'it urug'i zodagonlari hukmron tabaqaning asosiy tayanchi bo'lib xizmat qildi. Davlatdagi eng oliy harbiy-ma'muriy amaldorlar, mahalliy boshqaruvdagi asosiy mansabdorlar mang'it urug'iga mansub bo'lgan kishilardan tayinlanar edi. Shu bilan birga bu davrda mang'itlarga va boshqa o'zbek urug'lariga mansub bo'lmagan kishilarning ham davlat boshqaruvidagi yuqori amallarni egallash holati ko'zga tashlanadi. Bu yerda hatto forslar orasidagi davlatda amirdan keyingi ikkinchi o'rinda turadigan qushbegi amaliga tayinlangan kishilarning borligiga ham e'tiborni qaratish lozim. Bu holat Buxoro amirligining faqatgina so'nggi davriga xos bo'lib, hatto XIX asrning o'rtalarida ham qattiq amal qilingan qoida, ya'ni davlatdagi eng qori amaldorlarni faqat o'zbek urug'lariga mansub bo'lgan kishilarga berish an'anasi o'z kuchini amalda yo'qotganligini ko'rsatadi.

Bitiruv malakaviy ishi davriy chegarasi sifatida asosan, Buxoro amirligi tashkil topgan davrdan boshlab, ya'ni, XVIII asr ikkinchi yarmi – XX asrning 20-yillarigacha Buxoro amirligidagi davlat muassasalari faoliyati yoritishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi XVIII asrning o'rtalaridan va XX asrning 20-yillarida Buxoro amirligi davlat muassasalari faoliyati yoritishdan iborat.

Bunda quyidagi vazifalar belgilangan:

- XVIII asrning 50-yillari – XX asrning 20-yillari Buxoro amirligidagi davlat muassalarini faoliyati va strukturasini o'rganish;
- Buxoro amirlidagi davlat muassasalarining Qo'qon xonligi va Buxoro amirligi davlat muassasalari faoliyati bilan o'zaro solishtirish, taqqoslash;
- XVIII asrning 50-yillari va XX asrning 20-yillari Buxoro amirlidagi davlat muassalarini faoliyatini arxiv manbalari orqali yoritib berish;
- bitiruv malakaviy ish yakuniga ko'ra zarur xulosalar berish.

Bitiruv malakaviy ishi o'rganganlik darajasi. Buxoro amirligining davlat muassasalari faoliyatini bugungi kungacha o'rganilmagan, ammo amirlik tarixining u yoki bu jihatlarini bir qator sharqshunos, o'lkashunos va tarixchi olimlar tomonidan muayyan darajada ilmiy tadqiqotlar olib borilganligini e'tirof

etish lozim. Jumladan, davlatchilik masalalari bo'yicha Ular qatorida xususan, E. K. Meyendorf, A. A. Semenov, P. Ivanov, O. Chexovich, N. A. Xalfin, G. A. Mixaleva, A. Vildanova, B. Iskandarov, A. R. Muhammadjonov, H. N. Bobobekov, Sh. Karimov, M. Sodiqov, D. Valiyeva, I. G. Nizamuddinov, B. Xo'jayeva, B. Mannonov, Z. Rahmonqulova, H. To'rayevlarning tadqiqotlarini ko'rsatib o'tish mumkin².

Mustaqillik yillarida yaratilgan Buxoro amirligi tarixiga oid ayrim ma'lumotlarni bir qator tarixchilarining asarlaridan ham olish mumkin. Jumladan, H. Boboyev, Z. Xidirov, R. Xoliqova, Yu. Shukurullayev, B. Xodjayeva, B. Eshov kabi olimlar asalarini, Buxoroning 2500 yillik yubileyiga bag'ishlangan turli mavzudagi³ risolalarni ham aytib o'tish lozim. Mazkur manbaalarda Buxoro amirligi ijtimoiy – siyosiy hayoti, amirlikning shajaraviy tarixi, xonlikning XX asrning 20 yillaridagi hayoti, xonlikning tugatilishi, “Yosh buxoroliklar” harakati hamda xonlikdagi madaniy rivojlanish, ya'ni Rossiya imperiyasi bosqinidan keyin ham Buxorodagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy sohalar haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy-metodologik asoslari sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning nutqlari, maqolalari, fundamental asarlari, Respublika Vazirlar Mahkamasining mamlakatimiz tarixini o'rganish bilan bog'liq Qarorlari, taniqli o'lkashunos, manbashunos, tarixchi olimlarning asarlari hamda ilmiy tadqiqotlari xizmat qiladi.

Shuningdek, mustabid sovet davri va mustaqillik yillarida e'lon qilingan tarixiy-ilmiy asarlar, ilmiy tadqiqotlar, gazeta-jurnallarda chop etilgan ilmiy maqolalar tashkil qiladi.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati. Buxoro amirlini davlat muassasalari tarixi bo'yicha ilmiy manba sifatida to'laroq tasavvur qilishga imkon

² Бобобеков Х., Каримов Ш., Содиков М., Усмонов Қ., Холбоев С., Шоймардонов И. Ўзбекистон тарихи. Қисқача маълумотнома. – Тошкент: Фан, 2007; Маннонов Б. Нодиршоҳнинг зурриёдини топинг... // Шарқшунослик. – 1991. – №2. – Б.90-102; Маннонов Б. Ўрта Осиё ва Эрон элчилиқ муносабатлари тарихидан (XIX асрнинг биринчи чораги) // Эрон. Мақолалар тўплами. –Тошкент: Фан, 1977. – Б. 104-114. Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2012.

³ Холикова Р. Марказий давлат бошқаруви тарихига бир назар. // Мулоқот. – 2004. – №2. –Б.41; Шукурллаев Ю. Қўшин бошқарув тарихидан. // Жамият ва бошқарув. – 2006. – №2. –Б.48.

beradi. Davlat muassasalari strukturasi, vazifalari va faoliyatlarini o'rganishga imkon beradi.

Unda keltirilgan ma'lumotlardan O'zbekiston tarixi, O'rta Osiyo va O'zbekistonda davlat muassasalari tarixi, Buxoro xonligi tarixi fanlarini o'qitishda, ushbu fanlardan o'quv-uslubiy majmualar yaratish, shuningdek, Arxivshunoslik va tarix yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarni seminar mashulotlariga tayyorlanishda foydalanishlari mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi. Kirish, ikki bob, to'rt qism, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. O'RTA OSIYODA DAVLAT MUASSASALARI VA ULARNING DAVLAT BOSHQARUVIDAGI O'RNI

1.1. O'zbekiston hududida davlat muassasalarining tashkil topishi

Jahon tarixidagi ilk davlatlar dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi yerlar va sug'orish kanallari bilan chegaralangan hududlarda paydo bo'lgani haqida ma'lumotlar bor. Dastlabki davlatlar miloddan avvalgi IV ming yillikda tashkil topgan bo'lib, ularda o'ziga xos davlat muassasalari tizimi ham shakllangan.

Davlat tushunchasi ilgari ma'lum bir hukmron sinf manfaatlarini himoya qiluvchi tashkilot sifatida talqin etilgan. Bugungi kunda esa davlat tushunchasi mohiyati tubdan o'zgarib, u quyidagicha ta'riflanadi:

Davlat – suverenitetiga, boshqaruvning hamda fuqarolar huquq va erkinliklarini himoya qilishning maxsus apparatiga ega bo'lgan, shuningdek, huquqiy normalarini yaratishga qodir bo'lgan ommaviy hokimiyatning siyosiy-hududiy tashkiloti. Davlat – butun mamlakat miqyosidagi hokimiyatning maxsus boshqaruv va majburlov apparatiga ega bo'lgan, barcha uchun majburiy qonunlar chiqaradigan va suverenitetga ega bo'lgan yagona siyosiy tashkilot. U hokimiyatning bosh instituti bo'lib, jamiyat siyosiy tizimining odamlar, guruh, sinf va tashkilotlarning hamkorlikdagi faoliyatini va o'zaro munosabatini tashkil etadi, yo'naltiradi va nazorat qiladi⁴.

Davlatning asosiy belgilari sifatida fuqarolarning ma'lum bir hududda birlashishini, boshqaruv apparatini mavjudligi, barcha uchun majburiy bo'lgan asosiy qonun va qonun osti huquqiy-me'yoriy hujjatlarga egaligi, ichki va tashqi siyosati hamda soliqlar tizimi shakllanganligini qayd etish joiz.

Jamiyat va davlat o'rtasidagi munosabatlar rivojlanib borishi bilan davlat shakllari ham o'zgarib borgan. Boshqaruv jihatidan davlat monarxiya va respublika, tuzilishiga ko'ra unitar (oddiy), federativ va konfederativ shaklda, siyosiy tartibi bo'yicha demokratiya, aksildemokratiya, fashistik va totalitar (mustabid)

⁴ Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 2-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедия” Давлат илмий нашриёти, 2002. –Б. 445.

ko‘rinishlarga ega bo‘lgan. Birinchi bo‘lib demokratiya siyosiy tartibi Qadimgi Yunonistonda miloddan avvalgi 594-yilda o‘rnatilgan bo‘lsa, respublika boshqaruv shakli Qadimgi Rimda miloddan avvalgi 509-yilda joriy etilgan.

Davlat ishlarini tartibga solish, ichki va tashqi aloqalarni boshqarib turish zaruriyati maxsus davlat muassasalarini tuzilishiga olib keldi. Ular turli tarixiy davrlarda, turli siyosiy vaziyat va qonuniyatlar ta’sirida o‘zgarib, rivojlanib bordi. O‘z xususiyatlariga ko‘ra davlat muassasalari mamlakatni boshqaruvchi, qonun chiqaravchi, ijro etuvchi va sud organlari vazifasini bajarib keldi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda davlat muassasalari (idoralari) tushunchasini quyidagicha ta’riflash mumkin. Davlat muassasasi – davlat mexanizmining qonunga muvofiq ravishda o‘z tuzilishi, ijtimoiy hayotining muayyan sohasini boshqarish bo‘yicha aniq belgilangan vakolatiga ega bo‘lgan va yaxlit birlik hosil qiladigan tarkibiy qismi.

Davlat muassasalarining asosiy belgilari sifatida ularni maxsus qonun chiqarish yo‘li bilan tashkil etilishini, unga yuklatilgan vazifalar doirasi mavjudligini, boshqaruv apparatida mustaqil o‘ringa ega bo‘lishini, boshqa idoralar bilan aloqalari va o‘ziga xos tuzilishga egaligini aytib o‘tish mumkin.

O‘zbekiston davlat muassasalarini vujudga kelishi masalasining o‘rganilishi tarixini yorituvchi bir qator ilmiy nashrlar mavjud bo‘lib, ular hozirda ham o‘z qimmatini yo‘qotmagan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov 1998-yil iyul oyida bo‘lib o‘tgan bir guruh tarixchi olimlar va ommaviy axborot vositalari vakillari bilan uchrashuvida o‘zbek xalqi tarixini har tomonlama tadqiq qilish, davlatchilik tarixining turli bosqichlaridagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy hayotini o‘rganish yuzasidan bir qator takliflar ham bildirgan edi. Shundan kelib chiqqan holda respublika kasb-hunar kollejlarining ish yuritish va arxivshunoslik ta’limi yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalariga O‘zbekiston davlat muassasalari tarixini o‘rgatish alohida ahamiyatga ega. Mazkur firkrimiz quyidagilar bilan asoslanadi:

1. Tashkilot, muassasa, idora va korxonalarda faoliyat olib borayotgan har qanday ish yurituvchi hujjat turi, uni rasmiylashtirish tartibi hamda ish yuritish

tizimini to'g'ri tashkil etish uchun muassasa tushunchasiga ega bo'lishi va ularni kelib chiqish tarixini yaxshi bilishi talab etiladi.

2. O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 15-aprelda "Arxivlar to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, Milliy Arxiv Fondi tashkil etildi. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi davlat va nodavlat arxiv fondlarini o'z ichiga oladi. Davlat arxiv fondi hujjatlar hajmi jihatidan katta qismni tashkil etishi va davlat muassasalari faoliyati natijasida mujassamlashganligini inobatga olgan holda ularning tarixini o'rganish muhim masalalardan biri sanaladi.

3. Davlat arxivlari ishini tashkil etishda, ya'ni ularni hujjatlar bilan butlash, hujjatlar qimmatdorligini ekspertiza qilish, tartibga solish va ulardan ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy maqsadlarda foydalanishni yo'lga qo'yishda O'zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondini butlash manbai hisoblangan davlat muassasalarini tuzilishi, vazifalari, faoliyati to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lish zarur hisoblanadi.

O'zbekiston hududida ilk davlatlarning vujudga kelishi ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishiga bog'liq holda bo'lgan. Mamlakatning tabiiy iqlimi sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullanishga katta omil bo'lib xizmat qilgan. Dehqonchilik, hunarmandchik va savdo-sotiqning rivojlanishi, shuningdek, kuchayib borayotgan siyosiy qarama-qarshiliklar, harbiy to'qnashuvlar ta'sirida davlatlar vujudga kela boshlagan. Natijada yer maydonlariga bo'lgan munosabat, ayniqsa ularga egalik qilish udumlari asta-sekin o'zgarib borgan.

O'zbekiston hududida ilk davlat uyushmalari miloddan avvalgi I ming yillikning birinchi yarmida, ya'ni VII-VI asrlarda tashkil topgan⁵. Davlatga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun o'ziga xos davlat muassasalari tizimi joriy etilgan bo'lib, davlatchilikning dastlabki bosqichida davlat muassasalari vazifasini maxsus tayinlangan shaxslar amalga oshirgan. Yil sayin ko'payib borayotgan jamoa xo'jaliklarida yer va suvni taqsimlash, qurilish va irrigatsiya (sug'orish) ishlarini yuritish, jamoaning ichki va tashqi ishlarini boshqarib turish

⁵ Abdurahimova N. A. va boshq. Davlat muassasalari tarixi. Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent: Sharq, 2007. – B.8.

zaruriyati “qishloq hokimlari” deb nomlanuvchi oqsoqol (yoki dehqon)lar sinfmi shakllanishiga olib keldi. Ularning mol-mulkni himoya qiluvchi, dushmanlarga qarshi harbiy yurishlar uyushtirish va tinch paytlarda qishloq aholisi ustidan hukmronlik qilish uchun 50-100 tadan ortiq o‘z askarlari bo‘lgan. Ma’lum bir hududda bir necha qishloqlar birlashib, tumanni hosil qilgan. Tumanni oqsoqollar kengashi boshqargan. Oqsoqollar kengashi esa viloyat yoki shahar hokimiga bo‘ysingan. Ba’zida esa viloyatlar biron-bir davlatga tobe bo‘lib, ularni mamlakat hokimi – podshoh boshqargan. Masalan, Ahamoniylar davlati (miloddan avvalgi VI asr o‘rtalari) tarkibiga kirgan O‘zbekiston hududlari satrapliklar (viloyat)ga ajratilib, ularni satraplar boshqargan. Satrap etib urushda yaxshi xizmat ko‘rsatgan sarkardalar bilan birga mahalliy hokimlar ham tayinlangan.

Davlat rivojlanishi bilan uning vazifalari doirasi kengayib, natijada davlat muassasalari tizimi ham takomillashib borgan. Har bir davlatning boshqaruv idorasi, xodimlari, budjeti va muayyan ish yuritish tizimi mavjud bo‘lgan. Ahamoniylar davrida bo‘lgani kabi Salavkiylar (miloddan avvalgi 312-yil) hukmronligida ham ko‘pgina davlat ishlarini olib boruvchi devonxona mavjud bo‘lgan. Ayrim manbalarda keltirilishicha, saroydagi xat-hujjat ishlarini boshqaruvchi maxsus lavozim joriy etilgan.

Mazkur davlatlar monarxiya shaklida boshqarilib, hukmdor qo‘lida qonun chiqaravchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati mujassamlashgan. Ayrim hollarda uning vakolatlarini cheklab turuvchi davlat organi ta’sis etilib, mamlakatni boshqarish o‘zaro kelishuv asosida amalga oshirilgan. Xususan, miloddan avvalgi III asrning boshlarida tashkil topgan Qang‘ davlatini boshqarish shakliga ko‘ra cheklangan monarxiya deb atash mumkin. Chunki, mamlakatni boshqarishda podshohga Oqsoqollar kengashi (Oliy kengash) yordam bergan. Hattoki yangi hukmdorni taxtga o‘tqazish to‘g‘risidagi qaror Oqsoqollar kengashi tomonidan ko‘rib chiqilgan va tasdiqlangan.

Qadimgi Farg‘ona (Dovon mil. av. III asr) davlati oliy hukmdor – podshoh tomonidan boshqarilib, uning ikki yordamchisi – vazir (katta va kichik) bo‘lgan. Vazir etib podshohning yaqin kishilari yoki qarindoshlari tayinlangan. Qadimgi

Fargʻonada Qangʻ davlati kabi hukmdorlar boshqaruvda Oqsoqollar kengashiga tayangan⁶. Kengash mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hayotida faol ishtirok etish bilan birga podshoh bilan bogʻliq rasmiy tadbirlarda ham ishtirok etgan. Kengash qarori bilan davlatning muhim masalalari, yaʼni urush eʼlon qilish, sulh tuzish, dip-lomatik munosabatlar oʻrnatish kabi masalalar hal etilgan. Oqsoqollar kengashi hukmdorni taxtga oʻtqazish va kerak hollarda taxtdan tushirish va jazolash vakolatiga ham ega boʻlgan. Masalan, xitoyliklar bosqini aybdori deb topilgan Fargʻona hukmdori Mugʻuy kengash qarori bilan qatl etilgani tarixiy manbalarda koʻrsatilib oʻtiladi.

Bundan tashqari davlat boshqaruvida diniy muassasalarning oʻrni ham beqiyos boʻlgan. Ibodatxonalar tasarrufida mulk va yerlar boʻlib, ularni diniy arboblar – kohinlar boshqargan. Kohinlar faoliyatini esa bosh ruhoniy nazorat qilib turgan.

Umuman olganda, qadimgi davrlardayoq Oʻzbekiston hududida oʻziga xos davlat organlari taʼsis etilib, ular boshqaruv masalalarini tartibli ijro etishga yoʻnaltirilgan edi.

Mahalliy hukmdorlar ichida eng yirigi Samarqand ixshidlari boʻlib, ular Soʻgʻdning ilk feodal davlatlari konfederatsiyasi tarkibida katta siyosiy nufuzga ega boʻlgan. Mazkur ittifoq tarkibiga Buxoro, Kesh va Naxshab mulklari birlashgan. Soʻgʻd shahar va qishloq aholisi - naf, mulkdorlar – ozodkor, savdogarlar – guvokor, dehqonlar – kashovarz, xizmatkorlar – korikor, tobe dehqonlar – kadivar deb yuritilgan. Aslzodalar tabaqasiga podshoh, mahalliy hukmdorlar, yirik dehqonlar kirgan. Podshoh davlat bosh hukmdori sanalib, u umumdavlat mulkdan tashqari, oʻzining shaxsiy mulkiga ham ega boʻlgan⁷.

Jamiyatda dindor shaxslarning ahamiyati katta boʻlgan. Ular turli diniy marosimlar va udumlarni ado etish bilan bir qatorda, davlatni boshqarishda hukmdorlar ga oʻz yordamlarini berganlar. Diniy yerlarni vagʻnze, din peshvolarini vagʻnpat deb atashgan.

⁶ Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2012. –Б.102,

⁷Сагдуллаев А., Аминов Б. ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. 1-қисм. – Тошкент: Академия, 2000. –Б.72.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston xududida ilk davlat muassalari faoliyati asosan mahalliy va davlat mansablari bilan bog'liq xolatda yuritilganligini ko'rish mumkin.

1.2. Buxoro amirligining tashkil topishi va davlat boshqaruvi.

Buxoro amirligida XVIII asrning o'rtalarida yuz bergan siyosiy voqealar o'zbeklarning mang'it urug'i vakillarini hokimiyat tepasiga olib chiqdi. Hukmron sulola almashuvi davlatning siyosiy maqomida ham o'zgarish bo'lishiga olib keldi. Yangi hukmdorlar hokimiyatni rasman "amir" unvoni bilan boshqara boshladilar va bu davlat Buxoro amirligi nomi bilan tarixda qoldi.

Ashtarxoniylar davrida o'ta zaiflashib qolgan davlat boshqaruvida mang'it urug'i biylarining nufuzi ancha ko'tarilgan edi. Abulfayzxonning o'limidan (1747) keyin taxtga to 1756 yilgacha uning avlodlari chiqqan bo'lsada, amalda hokimiyat mang'itlar sulolasi vakili Muhammad Rahim qo'lida edi. U o'z hukmronligining dastlabki davridayoq markaziy davlat hokimiyatini mustahkamlashga kirishadi. Yirik yer egalari, savdogarlar va ulamolar uning bu harakatini qo'llab-quvvatlaydilar. Ishni avvalo saroy amaldorlarini o'zgartirishdan boshlagan Muhammad Rahim keyinroq viloyat hokimligiga ham o'z odamlarini tayinlashga erishadi. Buning uchun u 1750-1752 yillarda Shahrisabzga 4 marta harbiy yurish qilib, bu voxada o'z hokimiyatini o'rnatdi, G'uzor ham Buxoro hokimiyatini tan oldi. Shuningdek, Miyonqol, Nurota, Urgut, Qobadiyon, Boysun kabi bekliklar ham birin-ketin bo'ysundirildi. 1753-1756 yillarda Zarafshon voxasining yuqori oqimi, Jizzax, Zomin ham Buxoro tarkibiga qo'shib olindi.

1756 yil dekabr oyida Muhammad Rahimxon rasman Buxoro taxtiga o'tiradi. U taxtga o'tirgach, bir qancha siyosiy-ma'muriy islohatlar o'tkazildi⁸. Yangi saroy amallari joriy qilindi, mustaqil Yakkabog' hokimligi tuzildi. Shuningdek, Hisor, Denov, Dushanbe, Termiz, Boysun bekliklariga harbiy yurishlar o'tkazilib, bu hududlar yana bo'ysundirildi. O'z hokimiyatini mustahkamlab olgan Muhammad Raximni qonuniy hukmdor ekanligini tan

⁸ Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2012. –Б.338.

olishib, Qo'qon, Toshkent, Marv, Balx va Qunduz bekliklaridan rasmiy elchilar keldi.

Muhammad Rahimning vafotidan so'ng Buxoro taxtiga uning tog'asi, Miyonqol hokimi Doniyolbiy mang'it (1759-1784) o'tirdi. Uning hukmdorligi davrida markaziy hokimiyatga qarshi chiqishlar yana avj oldi. Jumladan, yuz, kenagas, burgut, baxrin, saroy va boshqa yirik o'zbek urug'larining amirlari birlashib katta qo'shin bilan Buxoroga yurish qiladi. Markaziy hokimiyatning kuchayishidan manfaatdor bo'lgan savdogarlar va shahar aholisining yordami bilan qo'zg'olonchilar tor-mor etiladi va uning boshida turganlar qatl etiladi.

Lekin mamlakatda siyosiy vaziyat o'nglanmadi, amirlikning sharqiy qismida hokimiyatga qarshi qo'zg'olonlar ko'tarildi. Iqtisodiy vaziyat yana nochor ahvolga kelib qoldi. 1784 yilda Buxoroda boshlangan qo'zg'olon taxtga yangi hukmdorni olib keldi. Qo'zg'olon bostirilgan bo'sada. Taxtdan voz kechish payti kelganini anglagan Doniyolbiy 1785 yilda taxtni o'g'li Shohmurodga topshirdi.

Shohmurod mang'it hukmdorlari orasida birinchi bo'lib "amir" unvoni bilan davlatni boshqardi. Tarixda "Amir ma'sum" ("Begunoh amir") nomi bilan qolgan Shohmurodning hukmronlik yillarida (1785-1800) Buxoroda markaziy hokimiyat nisbatan mustahkamlandi. U o'z hukmronligining dastlabki yillarida isyonkor bekliklarga qarshi qattiq kurashlar olib bordi. Buxoroga bo'ysunishdan bosh tortgan Karmana, Shahrisabz, Xo'jand va boshqa shaharlar bo'ysundirildi. Amir Shohmurod nafaqat siyosiy vaziyatni yaxshilashga erishdi, balki bir qator ma'muriy, iqtisodiy-madaniy tadbirlarni ham amalga oshirdi. Saroyda kamtarona hayot kechirgan bu hukmdor Zarafshon va Qashqadaryo voxalaridagi, amudaryo bo'ylaridagi sug'orish tizimlarini qayta tikladi, yangi ko'priklar, yo'llar barpo ettirdi⁹.

Amir Shohmurod tomonidan o'tkazilgan moliya, sud ma'muriy va harbiy sohalardagi islohotlar natijasida mamlakatda siyosiy-iqtisodiy yuksalish ko'zga tashlandi. Soliqlarning tartibga solinishi, sud ishlaridagi nohaqliklarga chek

⁹ Воҳидов Ш., Қодиров А. Шарқнинг машхур сулолалари. –Тошкент: Akademnashr, 2013. –Б. 542.

qo'yilishi, mahalliy amaldorlar faoliyati ustidan nazorat o'rnatilishi, savdo-sotiq va hunarmandchilikning, qishloq xo'jaligining yuksalishiga sharoit yaratdi.

Shohmurodning vafotidan keyin taxtga o'tirgan Amir Xaydar otasi boshlagan siyosatni izchillik bilan davom ettira olmadi. Uning amirligi davrida (1800-1826) mamlakatda siyosiy vaziyatda keskinlik saqlanib qoldi. U Buxoroga bo'ysunishdan bosh tortgan Shahrisabz, Urgut beklklariga, Miyonqolga qarshi janglar olib bordi. Xarbiy kuch ish bermagan vaziyatda kelishuvchilik yo'li tutilib, Shahrisabz mahalliy hokim Doniyor vallomaga mulk sifatida taqdim etildi va Shahrisabz vohasi to 1858 yilgacha deyarli mustaqil ravishda boshqarildi. O'ratepa bekligi ham bo'ysundirildi va amirlik hududi ancha kengaydi¹⁰.

Bu davrda qo'shni xonliklar bilan munosabatlar ancha keskinlashdi. Xiva xoni qo'shinlarining Buxoroga talonchilik yurishlari davom etdi. Shuningdek, bu davrda tobora kuchayib borayotgan Qo'qon xonligi bilan munosabatlar ham yomonlashdi. Azaldan Buxoroga tobe hisoblangan Toshkent, Turkiston, O'ratepa, Xo'jand va boshqa shaharlarga Qo'qonliklarning tajovuzi avj oldi. Amir Xaydar 1807-1810 yillarda Qo'qon xoni Olimxon bilan Toshkent, O'ratepa, Jizzax, Zomin shaharlari uchun janglar olib borishga majbur bo'ldi va bu shaharlar bir necha bor qo'ldan-qo'lga o'tib turdi.

Amir Haydar vafotidan keyin taxtni uning uchinchi o'g'li Nasrullo egalladi. O'z akalari Husayn va Umarni o'ldirib, Buxoro taxtni egallagan Amir Nasrullo Buxoroning eng shafqatsiz hukmdori sifatida tarixda qoldi. Shu bilan birga u davlat hokimiyatini birmuncha mustahkamlagan, harbiy sohada ancha samarali islohotlar o'tkazib, o'z qo'shinining jangovar xolatini oshirgan, mamlakatning hududiy yaxlitligini birmuncha tiklagan hukmdor edi. Amir Nasrulloning hukmronligi davri (1826-1860) ham ichki va tashqi dushmanlar bilan to'xtovsiz kurashlar bilan o'tdi. Birinchi galda u o'zini taxtga chiqishida yordam bergan kishilarni o'ldirib yubordi. U dushmanlarini qo'rquvga solib turish uchun Buxoroda har kuni ko'plab kishilarni qatl ettirib turar edi. Shuning uchun ham u xalq orasida "qassob amir" deb atalgan. U markaziy hokimiyatni tan olmagan

¹⁰ Усмонов Қ., Содиков М., Бурхонова С. Ўзбекистон тарихи. Дарслик. —Т., 2005. —Б. 167.

mahalliy bekliklarga qarshi qattiq kurash olib bordi. Ayniqsa, Shahrisabz bekligiga qarshi olib boilgan urushlar uzoq davom etdi. 1832 yilda boshlangan urushlar 1858 yilda Shahrisabz va Kitob bekliklarining bo'ysundirilishi bilan yakunlandi.

Amirlikning shimolidagi chegara shaharlari (Xo'jand, O'ratepa, Toshkent, Jizzax, Zomin) uchun Qo'qonliklar bilan bo'lgan nizolar davom etdi va harbiy jihatdan kuchli bo'lgan Buxoro qo'shinlari bu shaharlarni asta-sekin o'ziga bo'ysundirdi. Amir Nasrullo 1842 yilda Qo'qon shahrini ham egallaydi va Qo'qon xoni Muhammad Alixonni oila a'zolari bilan birga qatl ettiradi. Xatto, iste'dodli shoira Nodirabegimga ham shafqat qilinmadi. Bunda Nasrulloqa Qo'qon xonidan norozi bo'lgan ba'zi amaldorlar ham yordam berdilar.

Qo'shni Xiva xonligi bilan ham nizoli munosabatlar saqlanib qoldi. Amir Nasrulloning Qo'qon yurishida ekanidan foydalangan xivaliklar Buxoro hududiga xujum qilganligi (1843), Xiva xonining Marv turkmanlarini Buxoro yerlariga xujum qilishga rag'batlantirganligi bu ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarni xarakterlaydigan voqealarga misol bo'ladi.

Amir Haydar va Amir Nasrullo hukmronligi davrida O'rta Osiyo Rossiya va Angliyaning siyosiy-iqtisodiy manfaatlari to'qnash kelgan o'lkaga aylanib qoldi. Bu davrda Hindistonni egallagan va Afg'onistonda katta ta'sirga ega bo'lgan Angliya O'rta Osiyonining qudratli davlati – Buxoro amirligiga o'z vakillarini yubora boshlaydi. XIX asrning 30-40 yillarida bir qancha ingliz razvedkasi bo'lishib, bu yerda Rossiyaga qarshi Buxoro-Xiva ittifoqini tashkil qilishga urinib ko'rdilar. Lekin, bu urinish samarasiz yakunlandi.

Amir Nasrullo davrida chor Rossiyasi qo'shinlarining O'rta Osiyo chegaralariga yaqinlashishi davom etdi. Rossiya hukumati ham Buxoroga o'z ta'sirini o'tkazishga faol intildi. Istilochilik yurishlariga qadar Buxoroga 4 ta yirik rus elchilik missiyasining tashrifi buning dalilidir. Yuborilgan bu missiyalarga mamlakatdagi siyosiy-iqtisodiy vaziyat, shaharlar va mudofaa qo'rg'onlari, qo'shin tuzilishi, qurol-yarog'lar, aloqa yo'llariga oid kerakli ma'lumotlarni yig'ish haqida topshiriqlar berilgan edi. Bu ma'lumotlardan keyinchalik Rossiya

imperiya­si­ning O'rta Osiyoga bosqinchilik yurishlarida keng foydalanilganligi ma'lum.

Amir Nasrullo amal­da Buxoroning oxirgi mustaqil hukmdori bo'lib qoldi. Nasrulloxondan so'ng Buxoro taxtiga uning o'g'li Muzaffarxon o'tirdi (1860-1885). Uning hukmronligi boshidayoq amirlikning hududi birmuncha qisqardi. Katta qiyinchilik bilan bo'ysundirilgan Shahritsabz-Kitob bekliklari yana Buxoroga bo'ysunishdan bosh tortadilar. Lekin amirlik uchun eng katta xavf xali oldinda edi.

Mang'itlar hukmronligi davrida ham Buxoroning davlat tizimida jiddiy o'zgarishlar amalga oshirilmadi. Garchi oliy hukmdor amir unvoni bilan mamlakatni boshqargan bo'lsada, Buxoro amirligi ham o'z tizimi, qonun-qoidalari, boshqaruv tartiblari va butun mohiyati bilan Movarounnahr­dagi o'rta asr musulmon davlatlari, xususan, shayboniylar va ashtarxonitylar davlat tizimidan aytarli farq qilmaydi. Davlat mutloq qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatga ega bo'lgan amir tomonidan boshqarilar edi. Davlai hayotiga tegishli siyosiy, iqtisodiy, diniy va boshqa barcha masalalarda Buxorodagi bosh qarorgoh – arkda xal etilardi. Vaqti-vaqti bilan Davlat Kengashi chaqirilib turilardi. Odatda 5 tadan 20 tagacha eng yuqori amaldorlar a'zo bo'lgan bu kengashda davlat hayotiga taluqli o'ta muhim masalalar ko'rib chiqilgan.

Mang'itlar davrida ham davlat boshqaruvi ikki bo'g'inli, ya'ni markaziy va mahalliy boshqaruvdan iborat bo'lib, ularning har biri muksulmon davlatlariga xos bo'lgan murakkab boshqaruv tarmoqlariga ega edi. Mang'itlar sulolasi davrida bosh vazir vazifasini qushbegi mansabini egallagan shaxs bajargan. Davlat boshqaruvida devonbegi, parvonachi, otaliq, dodxoh, xudaychi, mirzaboshi va boshqa saroy a'yonlarining hamda shayxulislom, qozikalon kabi diniy rahbarlarning ahamiyati yuqori bo'lgan.

Mahalliy boshqaruv viloyat beklari qo'lida edi. Ularning ham o'z boshqaruv tizimi bo'lgan. Mang'itlar sulolasi davrida o'tkazilgan ma'muriy islohotlar tufayli davlatning asosiy ma'muriy birligi bekliklar bo'lib qoldi. Amirlik hududi eng kengaygan Amir Nasrullo davrida Buxoro tarkibida asosan 30 ta beklik bor edi.

Ular Qarshi, G'uzor, Chiroqchi, Kitob, Shahrisabz, Yakkabog', Boysun, Denov, Sherobod, Xisor, Qorategin, Darvoza, Baljuvon, Shug'onon, Rushon, Ko'lob, Qo'rg'ontepa, Qabadiyon, Kalaf, Kerki, Burdalik, Qalaqli, Narazm, Chorjo'y, Karmana, Ziyovuddin, Nurota, Xatirchi, Urgut, Samarqand bekliklaridir. Ulardan tashqari bu davrda Jizzax, O'ratepa, Toshkent, Turkiston va boshqa qo'shni hududlar ham amirlik tarkibiga vaqtincha kiritilgan edi.

Poytaxt shahar Buxoro va atrofdagi tumanlar amir tomonidan boshqarilgan. Bekliklar o'z navbatida kichik xududiy bo'linma – amlokdorliklarga bo'lingan bo'lib, ularning boshlig'i amlokdor deb atalgan. Davlat ma'muriy tuzilishidagi eng quyi bo'g'in oqsoqol tomonidan boshqariladigan qishloq jamoalari edi. Buxoro amirligi tus istilosiga qadar xozirgi O'zbekiston, Tojikiston va Turkmaniston respublikalarining katta qismini o'z ichiga olgan o'rta Osiyodagi yirik davlat edi.

Mang'itlar sulolasi davrida ham avvalgi davrlarga xos ijtimoiy tabaqalar saqlanib qoldi. Bu davrda jamiyat madaniy hayotiga mas'ul bo'lgan ijtimoiy guruhlar: olimlar, shoirlar, mudarrislar, talabalar hayotida ham jiddiy o'zgarishlar ro'y bermadi. Asosiy soliq to'lovchi aholi bo'lgan raiyat (fuqaro) ijtimoiy pog'onaning eng quyi qismida bo'lib, ijtimoiy adolatsizliklarning asosiy og'irligi ularning zimmasida edi. Buxoro amirligida qulchilik bu davrda ham saqlanib qoldi. Qullar asosan rus va fors millatiga mansub bo'lib, ular harbiy talonchilik yurishlari paytida qo'lga olinardi va ko'pincha turkman va qozoqlar tomonidan Buxoro bozorida sotilar edi.

Mang'itlar sulolasi davrida davlatning harbiy salohiyati birmuncha yuksaldi. Harbiy islohotlar qisman sulola asoschisi Muhammad Raxim tomonidan, keyinchalik amir Shohmurod tomonidan olib borildi. Buxoro amirligining harbiy qudrati amir Nasrullo hukmronligi davrida o'zining eng yuqori nuqtasiga etdi. Uning davrida Buxoroda muntazam armiya – sarbozlar (sipoh) qo'shini tashkil etildi. Ularning soni 40 mingga yaqin bo'lgan. Qo'shinlar otliq va piyoda jangchilardan tashkil topgan bo'lib, ularning qurollari asosan qilich, nayza va o'q-yoylardan iborat edi. Bu davrda Buxoroda zambaraklar yasovchi chet ellik mutaxassislar ham bo'lganligi ma'lum. Lekin, qo'shinni zamonaviy miltiqlar va

zambaraklar bilan qurollantirish sohasida boshlangan ishlar tugallanmasdan qolib ketdi. Oliy harbiy amaldorlar sarkarda unvoniga ega bo'lib, davlat xazinasidan maosh olib turishgan. Eng yuqori harbiy amaldor (amirdan keyin) dodxoh (qo'shin boshlig'i) bo'lib, qo'rg'onbegi, to'qsabo, mingboshi kabi oliy toifali harbiy amaldorlar hamda ponsadboshi, churaboshi, yuzboshi, daxboshi kabi xarbiy bo'linma boshliqlari tomonidan qo'shin boshqarilgan.

Bu davrda ham asosiy sudlovchi idora qozilik mahkamalari hisoblanib, qoziqalon butun mamlakatning bosh qozisi (sudyasi) edi. Sud ishlari ularning qo'lida bo'lib, fuqarolik va jinoiy ishlarning barchasi qozilar tomonidan ko'rib chiqilgan. Aybdorlarga aybiga qarab jarima solish, tan jazosi berish, zindonga tashlash, sazoyi qilishdan tortib o'lim jazosi berishgacha bo'lgan jazo choralari qo'llangan. Qozi hukmidan norozi bo'lganlar qozikalon yoki amirga ariza berishga haqli edi. Qozi chiqargan hukmni qozikalon, uning hukmini amir bekor qilishi mumkin edi. Sud ishlarida a'lam, mufti kabi diniy mansab egalari ham katta rol o'ynaganlar.

Buxoro amirligida dehqonchilik va chorvachilik, hunarmandchilik va savdosotiq mamlakat iqtisodining asosiy tarmoqlari edi. Bu davrda ham amir va uning yaqinlariga qarashli davlat yerlari, xususiy mulkdorlarga tegishli yer mulklar (mulki xolis), diniy mahkamalar, madrasa va masjidlar, qabristonlar harajatlari uchun berilgan vaqf yerlar mavjud edi.

Bu davrda dehqonchilikda sezilarli o'zgarishlar yuz bermadi. Asosiy mehnat qurollari o'zgarmasdan qolaverdi. Lekin bunga qaramay, XVIII asrning oxirlarida boshlangan iqtisodiy yuksalish avvalo dehqonchilikning tiklanishi bilan xarakterlanadi. Odatdagidek, sug'oriladigan va lalmikor yerlarda yersiz dehqonlar ijara asosida dehqonchilik qilishardi. Asosiy ziroatchilik bug'doy, arpa, jo'xori, poliz va sabzavot ekinlari bo'lgan. Bu davrda an'anaviy bog'dorchilik va uzumchilikda rivojlanish ko'zga tashlandi. Shuningdek, amirlikda sholichilik ham birmuncha rivojlangan.

Amirlik hududidagi bepoyon dasht va cho'llar, tog' va tog'oldi tumanlari chorvachilik uchun juda qulay edi. Cho'l zonalarida, xususan, Buxoro, Qarshi

atrofidagi dashtlarda qorako'l teri etishtirishga ixtisoslashgan qo'ychilik rivojlanib bordi. Tashqi bozorda unga talabning kattaligi bu soxaning taraqqiyotini belgilab berardi. Chorvachilikka ixtisoslashgan xo'jaliklarning tashqi va ichki bozorga tuyoqli mollar, sifatli teri, jun va turli mahsulotlar (shol, namat, arqon va boshqalar) hamda oziq-ovqat (go'sht, sut mahsulotlari) etkazib berishda o'rni katta edi.

Amirlikda asosiy hunarmandchilik markazlari sifatida shaharlar katta o'rin tutsada, ko'pgina yirik qishloqlarda ham hunarmandchilikning ba'zi sohalari rivojlanib bordi. Hunarmandlar bu davrda ham o'z uyushmalariga ega bo'lib, ularning tashkil topishi ma'lum turdagi mahsulot ishlab chiqarish jarayoni ustidan nazorat o'rnatishga bog'liq edi. Hunarmandchilikning barcha soxalarida bunday uyushmalar mavjud bo'lib, uni saylab qo'yiladigan rais yoki oqsoqol boshqargan. Hunarmandlar o'z uyushmalariga ega bo'lsalarda, o'zlariga tegishli ustaxonalarda ishlaganlar. Har bir ustaning o'z yordamchilari, shogirdlari bo'lib odatda shogirdlikka ustaning o'g'illari yoki yaqin qarindoshlari olingan.

Buxoro amirligida to'qimachilik hunarmandchilikning etkchi tarmog'i bo'lib qoldi. Uning taraqqiyoti bir tomondan ichki va tashqi bozorda bu turdagi mahsulotlarga talab kattaligi tufayli, ikkinchi tomondan mahalliy xomashyo manbalari (paxta, jun, ipak) etarli ekanligiga bog'liq edi. To'qimachilikning ip yigirish, matolar to'qish, tayyor kiyitmlar tikish, gilamchilik va boshqa sohalari ancha rivojlangan edi. Buxoroning zarbof to'nlari, Shahrisabzning iroqi do'ppilari, Samarqand ustalarining ipak buyumlari mashhur edi. Kulolchilik amirlikning ko'pgina joylarida rivojlangan edi. Uning asosiy markazlari G'ijduvon, Qarshi, Shahrisabz, Kattaqo'rg'on va boshqa shaharlar bo'lib, bu yerlik kulollar mahsulotiga talab katta edi.

Amirlikda metallga ishlov berish va metall buyumlar yasash ham birmuncha rivojlangan edi. Xonlikning tog'lik tumanlari (Shahrisabz, Boysun, Sherobod)da qadim davrlardan boshlab turli ma'danlar qazib olingan bo'lib, bu konlardan foydalanish ba'zi uzilishlar bilan to XX asr boshlarigacha davom etdi. Metallga ishlov berish va metall buyumlar yasash yanada mayda tarmoqlarga bo'linib

ketadigan quyidagi to'rtta: temirchilik, misgarlik, cho'yan quyish va rixtagarlik turlarida taraqqiy etdi. Hunarmandchilik turlari ichida zargarlik ham qadimiy an'analarga ega hunarmandchilik turi sifatida katta ahamiyat kasb etdi. Hunarmandchilik turlari ichida ko'nchilik, yog'ochga ishlov beruvchi ustalar, turli oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlaydigan ustalar borligini ham aytib o'tish kerak.

Buxoro amirligi garchi siyosiy jihatdan ikkinchi davrajali davlatlar qatoriga tushib qolgan bo'lsada, yirik savdo mamlakati sifatidagi ahamiyatini saqlab qoldi. Qishloq xo'jaligi va hunarmandchilikning nisbatan ancha rivojlanganligi tufayli bu soha mahsulotlari nafaqat ichki bozorni to'liq ta'minladi, balki ko'p miqdorda tashqi bozorga ham chiqarilardi. Amirlikdagi yirik shaharlar: Buxoro, Qarshi, Samarqand, Shahrisabz, Denov Kattaqo'rg'on va boshqalar asosiy savdo markazlari sifatida yuksalib bordi. Ichki savdoning taraqqiyotida yirik shaharlarning atrofidagi qishloqlar bilan iqtisodiy munosabatlari, shaharlararo savdo aloqalarining rivojlanganligi muhim o'rin tutardi. Amirlikdagi barcha shaharlarda, yirik qishloqlarda ixtisoslashgan bozorlarning mavjudligi ichki savdoning iqtisoddagi ahamiyatini ko'rsatib beruvchi muhim belgidir.

XVIII asr oxiri – XIX asr boshlaridan boshlab Buxoroning tashqi savdo aloqalarida Rossiyadagi savdo shaharlari (Orenburg, Astraxan) muhim o'rin tuta boshladi. Amirlikdan tashqi bozorga chiqariladigan qishloq xo'jalik mahsulotlari, xomashyolar (teri, qorako'l teri, jun, paxta, ipak, tolalar, turli matolar va boshqalar)ning asosiy xaridori Rossiya edi. Rossiyadan esa turli fabrika mahsulotlari, metallar (cho'yan, mis, qo'rg'oshin) keltirilardi. Amirlikning tashqi savdo aloqalarida Xiva va Qo'qon xonliklari, Afg'oniston, Hindiston, Eron va Qashqar bilan munosabatlar ham muhim o'rin egallaydi. Ichki savdo rivojida amirlikdagi mavjud pul muomalasining o'rni katta edi. Mang'itlar hukmronligi davrida bu sohada birmuncha barqarorlik o'rnatildi. Muomalada asosan uch turdagi: tillo, tanga (kumush) va pul (mis) mavjud bo'lib, savdo-sotiq va turli o'lchovlarda ko'pincha tillo va pul ishlatilgan.

XVIII asrning so'nggi choragida o'tkazilgan iqtisodiy islohotlar, xususan soliqlarning tartibga solinishi mamlakat iqtisodining bir qadar yuksalishiga imkon

berdi. Bu davrda ham soliqlar sonining va miqdorining belgilanishida shariat qonun-qoidalari va davlat xazinasining extiyojidan kelib chiqilganligini ko'ramiz. An'anaviy bo'lgan yer solig'i xiroj savdogarlar va chorva mollaridan olinadigan zakot, tashqi savdodan keladigan boj solig'i, shuningdek, hunarmandlar to'laydigan turli soliqlar (zakot, tang'a, taxtajoy) amirlikdagi asosiy soliq turlari edi.

Buxoro amirligi iqtisodining XVIII asr oxirlarida bir qadar yuksalishi madaniy hayotda ham o'zining ta'sirini ko'rsatdi. Buxoro bu davrda musulmon sharqining yirik madaniy markazi sifatida o'z ahamiyatini saqlab keldi. Asrlar davomida shakllangan maktab va madrasalar faoliyati bu davrda ancha yuksaldi. Oliy ta'lim maskanlari bo'lgan madrasalar amirlikning barcha shaharlarida mavjud edi. XIX asr boshlarida faqat Buxoro shahrining o'zida 108 ta madrasa bo'lib, ularning 60 tasi asosiy ta'lim maskanlari sifatida mashhur edi. Madrasada o'qitish avvalgidek quyidagi uch bosqichda amalga oshirilgan: 1) past qadam; 2) miyona; 3) peshqadam. Madrasalarda talabalar Qur'on, fiqh, shariat asoslari, diniy-ahloqiy adabiyotlarni hamda til, adabiyot, tarix, falakiyot, mantiq, falsafa, xandasa va boshqa bir qancha aniq fanlardan ta'lim olishgan. Lekin bu davrda dunyoviy bilim berish birmuncha orqada qolgan edi.

Bu davr madaniy hayoti haqida adabiyot, tarix, xattotlik, musiqa sn'ati yodgorliklari, me'morchilik obidalari muhim ma'lumotlarni beradi. Bu davrda amirlikning turli yerlarida istiqomat qilgan ko'plab shoirlar, tarixnavislar va hattotlar barakali ijod qilib o'zlaridan muhim asarlar qoldirdilar.

XVIII asr ikkinchi yarmi – XIX asr O'rta Osiyo, xususan Buxoro amirligi me'morchiligida o'ziga xos davr bo'ldi. Garchi bu davrda Amir Temur va temuriylar hamda shayboniylar davridagidek oliy sifatli me'moriy inshootlar ko'p qurilmagan bo'lsada, binolar qurilishi to'xtab qolmadi va qurilayotgan binolarda uslubiy o'ziga xoslik ko'zga tashlandi. Buxoro Qarshi, Samarqand, Shahrisabz, G'uzor, Kattaqo'rg'on va amirlikning boshqa bir qancha shaharlarida ko'plab masjid va madrasalar barpo etildi. Me'morchilikning rivojlangan yo'nalishlari savdo-sotiq bilan bog'liq inshootlar qurilishida ham ko'zga tashlanadi. Amirlik

poytaxti Buxoroda va boshqa shaharlarda ko'plab ixtisoslashgan yopiq bozorlar mavjudligi, shaharlarda karvonsaroylar sonining muttasil oshib borishi, savdo yo'llari bo'yida rabotlar, sardobalar qurilishi fikrimiz dalilidir.

XVIII asr oxiri – XIX asr birinchi yarmida shaharlarning mudofaa devorlarini, qishloq mudofaa qo'rg'onlarini ta'mirlash ishlari ham olib borildi. Qurilgan binolar odatdagidek, davlat xazinasi va ayrim kishilarning xususiy mablag'lari xisobiga amalga oshirildi.

Buxoro amirligi tarixiga xulosa sifatida aytib o'tish kerakki, mang'itlar sulolasi davrida garchi ijtimoiy-iqtisodiy hayotda ba'zi yutuqlar qo'lga kiritilgan bo'lsada. Mamlakat hududi muntazam ravishda qisqarib borishi kuzatildi. Shimoliy viloyatlar (Toshkent, Turkiston, O'ratepa, Xo'jand) Qo'qon xonligiga qo'shib olingan bo'lsa, janubda Balx viloyati butunlay qo'ldan chiqarildi.

Mang'it amirlari sulolasi

1. Muhammad Rahim – 1747 – 1756 – 1758 yillar.
2. Doniyolbiy – 1759 – 1784 yillar.
3. Amir Shohmurod – 1785 – 1800 yillar.
4. Amir Haydar – 11800 – 1826 yillar.
5. Amir Nasrullo – 1826 – 1860 yillar.
6. Amir Muzaffar – 1860 – 1885 yillar.
7. Amir Abdulahad – 1885 – 1910 yillar.
8. Amir Olimxon – 1910 – 1920 yillar.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston xududida ilk davlat uyushmalari qadimgi davrda ham faoliyat yuritganligini, davrlar o'tishi bilan bu muassasalar o'zining faoliyatini kengaytirgani va alohida sohalarga ajralganligini, Buxoro amirligi tashkil topishi va faoliyatida ham davlat muassasalari o'rni muhimligini ko'rish mumkin.

II BOB. BUXORO AMIRLIGI DAVLAT MUASSASALARINING TASHKIL TOPISHI VA FAOLIYATI

2.1. Buxoro amirligini markaziy va mahalliy boshqaruvida faoliyat yuritgan davlat muassasalari

Buxoro xonligida davlatni boshqarish boshqa xonliklardan deyarli farq qilmagan. XVI – XVII asrda otaliq lavozimidagi shaxs xonning o'ng qo'li hisoblanib, u butun mamlakatni boshqargan. Naqib harbiy ishlar va tashqi siyosat bilan shug'ullangan. Vaqf yerlarni nazorat qilish sadrlar zimmasiga yuklatilgan. Shuningdek, qo'shin uchun alohida qozi (qoziaskar) tayinlangan. Qonunshunoslikka va umuman shariatga doir muhim masalani echish va hayotga tatbiq etish a'lam zimmasida bo'lgan. Devonbegi otaliq mansabidan keyin turgan. U urush va sulh ishlari, ayrim viloyat boshliqlarini tayinlash va boshqa masalalar bilan shug'ullangan. Parvonachi xon yorliqlarini topshirish va harbiy qismlarga boshchilik qilish kabi vazifalarni ado etgan. Shuningdek, xonlikda yasovul, eshikog'aboshi, miroxur, shig'ovul, amiri lashkar, to'pchiboshi, mirzaboshi, xazinachi, mehtar, mirob, qushbegi kabi lavozimlar bor edi. Mang'itlar sulolasi davrida ham mustabid hokimiyat shakli mavjud bo'lib, amir huquqi chegaralanmagan oliy hukmdor edi. Ijro etuvchi hokimiyatni bosh vazir — qushbegi boshqargan. U xon bilan bamaslahat ish yuritgan. Jamiyat hayoti shariat qonunlariga asoslangan. Mamlakat murakkab davlat apparati orqali idora qilingan. Masalan, moliya ishlari devonbegi kalonga, davlat xavfsizligi ko'kaltoshga, ichki tartibni saqlash va nazorat qilib turish raisga topshirilgan.

Buxoro amirligida markaziy boshqaruv quyidagi asosiy idoralar orqali amalga oshirilardi: amir – davlat boshlig'i, qushbegi — bosh vazir, (amir yordamchisi), otaliq, moliya idorasi, vaziri harb, qozilik mahkamasi¹¹.

¹¹ Бобоев Х., Хидиров З ва бошқ. Ўзбек давлатчилиқ тарихи (II китоб). –Тошкент: Fan va texnologiya, 2009. – Б.219.

Buxoro amiri hokimiyati cheklanmagan bo'lib, u bir vaqtning o'zida diniy va dunyoviy hokimiyat boshlig'i edi. Shu bilan birga, amir — davlatning Oliy bosh qo'mondoni, amirlik yerlarining oliy egasi hisoblangan.

Mang'itlar sulolasining uchinchi vakili bo'lmish Shoxmurod (1785-1801) amirlik unvonini qabul qildi¹². Amirlik unvoni ilgari asosan, ko'pgina qo'shin boshliqlari va joylardagi turli harbiy vakillarga berilgan bo'lsa, Muhammad Rahim davriga kelib esa amir unvoniga ega bo'lgan birorta mansabdor shaxs qolmagan. Ta'kidlash joizki, Shoxmurod tomonidan qabul qilingan amirlik unvoni tarixchi olim V. V. Bartol'd ma'lumotlarida keltirilgan amir unvonidan keskin farq qiladi¹³. Ushbu unvon ilgari amalda bo'lgan amirbeklik unvonidan farqli o'laroq halifalik maqomi – “amir-ul-mo'minin” sifatida talqin etilgan. Aynan ushbu davrdan Buxoro xonligi Buxoro amirligi deb yuritila boshlangan.

Amir davlatni mansabdor shaxslar, ya'ni amir xizmatchilari orqali boshqarar edi. Ushbu mansabdor shaxslar davlatning boshqaruv apparatini tashkil etgan. Buxoro amirlari shajaralarini Muhammad payg'ambardan boshlaganliklari sababli ularning unvonlariga “said” so'zi qo'shib aytilgan. Amir yonida doimiy ravishda uning shaxsiy yozishmalarini olib boruvchi ikki nafar kotibi bo'lgan. Ularning birinchisi munshiy bo'lib, u barcha ishlar bo'yicha berilgan ko'rsatmalar yozib borgan va amirga kelgan axborotlar, ma'lumotlarga hamda ma'muriy vakillardan va alohida shaxslardan kelgan iltimosnomalarga, shikoyatlarga javob berish bilan mashg'ul bo'lgan. Ikkinchi kotib - mushrif bo'lib, u sarupo berish, qurol-yarog' va shu kabilarni tarqatish haqidagi ko'rsatmalarni rasmiylashtirib borgan. Amir tomonidan yuqorida zikr etilgan iltimosnoma, shikoyatlar va boshqa xatlarga berilgan yozma javob - muboraknoma deb atalgan.

Amir o'z navbatida, hududiy tuzilmalardan doimiy xabarnomalar olib turgan. Amirlikdagi barcha bekliklar beklari va qozilari chopar navkarlar orqali amir huzuriga yozma axborotnomalar yuborib turganlar. Ularga amir nomidan tegishli tartibda muboraknomalar jo'natilgan.

¹² Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2012. –Б.137

¹³ Fors manbalarida urug' boshliqlari “amir”, ko'chmanchi xalqlar esa uning o'rniga turkiy atama “bek” yoki beklar boshlig'i deb atalgan.

Markaziy davlat boshqaruvini bir necha idoralar yig'indisi tashkil etib, davlatning oliy boshqaruv organi — oliy davlat mansabi hisoblangan qushbegi tomonidan boshqariladigan davlat devonxonasi (qushbegi devonxonasi) hisoblangan¹⁴. Qushbegi mansabi ilgaridan mavjud bo'lgan bo'lsada, XVII asrga kelib “otaliq” unvoniga nisbatan uning ahamiyati va vakolat doirasi ancha toraygan.

XVIII asrning o'rtalariga kelib qushbegi mansabi etakchi o'ringa chiqib, u davlat apparatining asosiy bo'g'ini sifatida barcha boshqaruvning asosiy funktsiyalarini o'z qo'lida to'play borgan. Qushbegi mahalliy beklar orqali markaziy davlat boshqaruvini amalga oshirish bilan bir qatorda, chet mamlakatlardan keladigan mol-mulklardan olinadigan boj to'lovlari ustidan nazoratni ham amalga oshirgan.

Qushbegi lavozimiga davlatning tajribali, ishbilarmon, siyosatdon kishilari tayinlangan. Nomzod avval devonbegi mansabida faoliyat yuritgan bo'lishi lozim bo'lgan. U saroydagi eng yuqori unvon egasi sifatida davlatda amirdan so'ng turgan. Turklardagi ulug' vazir yoki Yevropadagi davlat kantsleri singari qushbegi amirning eng yaqin maslahatchisi va ishonchli kishisi bo'lgan. Qushbegi bir vaqtning o'zida amirning shaxsiy muhrini saqlash, boshqa davlatlar bilan aloqalarni nazorat qilish, shuningdek, moliya ishlarini boshqarish kabi mas'ul vazifalarni ham amalga oshirgan¹⁵.

Buxoro amirligida savdo-sotiqdan olinuvchi barcha bojxona to'lovlari boshqaruvi ham qushbegi qo'lida bo'lishi bilan bir qatorda, u yer solig'ini yig'ish va yer-mulklarni berishni ham nazorat qilgan. Bulardan tashqari unga amir saroyi xavfsizligini nazorat qilish vazifasi ham yuklatilgan. Aynan mana shuning uchun ham amir shahardan boshqa joyga ketgan paytda u saroy darvozaxonasining unga maxsus kurilgan joyida amir shaharga qaytguncha kutib o'tirishga majbur bo'lgan. Har kuni kechqurun shaharning kechasi qulflanadigan darvozasi kaliti qushbegiga olib kelib berilgan va ertasiga ertalab esa kalitlar yana darvozabonlar boshlig'iga

¹⁴ Ўзбекистон давлатчилиги тарихи очерклари. — Тошкент, 2001. —Б.156.

¹⁵ Холиқова Р. Марказий давлат бошқаруви тарихига бир назар // Мулоқот, 2004. — №2. —Б.41.

qaytarilgan. Shuningdek, qushbegi Buxoro shahri hokimi bo'lishi bilan birga, barcha beklarning oliy boshlig'i ham edi. Uning mahkamasidan markaziy hokimiyatning ko'rsatmalari va qarorlari chiqib turgan. Qushbegi barcha ishlarni bevosita amirning roziligi bilan qilgan va har kuni qilingan va qilinayotgan ishlar to'g'risida amirga yozma yoki og'zaki axborot berib turgan.

Otaliq - amirlik markaziy boshqaruvida o'ziga xos vakolatga ega bo'lgan, mang'it hukmdorlarining tayanchi hisoblangan va ularning hurmatiga sazovor bo'lgan mansab egasi. Binobarin, otaliq amirga ota o'g'liga qilganidek xushmuomalalik bilan munosabatda bo'lishi lozim edi. Unga Buxoro shahri va Samarqanddan Qoraqo'lgacha bo'lgan hududlarda suv taqsimotini nazorat qilish vazifasi yuklatilgan. O'z navbatida otaliq Shohrud kanali mirobligi vazifasini ham bajargan.

Buxoro amirligida ahamiyati bo'yicha uchinchi pog'onada moliya idorasi – moliyaviy devonxona turgan. Ushbu davlat idorasini oliy moliyaviy amallardan biri sanalmish devonbegi boshqarib, u davlat boshqaruv tizimida ikkinchi mansabdor shaxs hisoblangan. Devonbegi davlat xazinasini, zakot (xorijiy mamlakatlardan keladigan mol-mulklardan tashqari) hamda soliqlarga nisbatan umumiy davlat boshqaruvini amalga oshirgan¹⁶. Buxoro amirligida davlat xazinasini amir xazinasidan alohida bo'lmaganligi sababli amirning shaxsiy daromad va harajatlari alohida tartibda bo'linmagan edi.

Amirning ikki xazinasini bo'lib, uni bo'lish quyidagi tamoyilga asosan amalga oshirilardi: ya'ni birinchi xazina asosiy xazina – sarf qilinmaydigan hamda daxlsiz sanalib, ikkinchisi xazina esa – xarajatlar manbai hisoblangan. Amir an'anaga ko'ra faqatgina otasi yoki bobosi tomonidan qoldirilgan daromadlarni sarf etib, o'zining foydasini saqlab qo'yardi. Amirlikda markaziy idoralardan biri mudofaa va harbiy masalalar bilan shug'ullanuvchi vazirlik bo'lib, ushbu idora bevosita to'pchiboshi lashkar (harbiy zir) tomonidan boshqarilgan. To'pchiboshi lashkar davlatdagi barcha otliq va piyoda askarlardan tashkil topgan qo'shinni boshqargan.

¹⁶ Исмоилов М., Шаропов А. Тарих атамалар луғати. –Тошкент: Akademnashr, 2013. –Б.135.

U mahalliy hududlarni harbiy masalalarda amalda yordam beruvchi maxsus vakillari orqali nazorat qilgan.

O'z navbatida amirlik markaziy boshqaruvida boshqa bir qator mansab va unvonlar bo'lib, ulardan to'rtta asosiy va yuqori darajadagi lavozim egalari hukumatga aloqasi bor shaxslar hisoblangan¹⁷. Jumladan:

Birinchisi, shayx ul-islom – diniy unvonlardan biri bo'lib, diniy ishlarni boshqargan va nazorat qilgan. Qozi askar - harbiy masalalar va harbiy jinoyatlarni ko'rib hal qiluvchi mansabdor;

Ikkinchisi, a'lamlar – davlatda fiqhiy masalalar bo'yicha fatvo chiqaruvchi shaxslar. Harbiy muftiylar – harbiylar uchun fatvo tuzuvchi, ayniqsa, davlat boshlig'ining boshqa bekliklarga safari chog'ida va harbiy yurishlar paytida harbiylar uchun fatvo chiqaruvchi vakil hisoblangan;

Uchinchisi, muhtasib – bozorlar va savdo rastalarida o'lchov birliklari, tarozilarni hamda hunarmandlar mahsulotlarining sifati va narxini nazorat qiluvchi amaldor;

To'rtinchisi, tarbiyachi-mudarrislar – ushbu mansab egalariga amirlikda katta e'tibor berilgan bo'lib, ularning asosiy vazifasi talabalarga ilm berish va ularni shariat yo'li asosida tarbiyalash bo'lgan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, bo'lajak qozilar, beklar va boshqa mansabdor shaxslar ularning tarbiyasi va ilmini olishi shart bo'lgan. Undan tashqari yana to'rt mansab mavjud bo'lganki, ularni amir bevosita saidlik obro'-e'tiboriga ega bo'lgan fuqarolarga in'om etgan. Birinchisi, Jo'ybor hududini, shahar devorining ichki va tashqi tomonini boshqarish masalasi yuklatilgan.

Ikkinchisi, naqib – harbiy yurishlar paytida qo'shinning jangovar tayyorgarligi, ta'minlanganligi va taqsimotini nazorat qiluvchi mansabdor. Undan tashqari u qo'shinning ilg'or qismini, orqa (front) qismini, o'ng va so'l qanotini va pistirma haqidagi ma'lumotlarni yig'uvchi vakil vazifasini ham amalga oshirgan.

¹⁷ Бобоев Х., Хидиров З ва бошқ. Ўзбек давлатчилиқ тарихи (II китоб). –Тошкент: Fan va texnologiya, 2009. – Б. 223.

Uchinchisi, bosh o'rog' – shariatga asosan saidlar qo'shinida muxtasib vazifasini amalga oshiruvchi shaxs.

To'rtinchi mansab naqshbandiy deb nomlanib, unga amirlar dafn etiladigan qabristonni ko'kalamzorlashtirish ishlarini boshqarish topshirilgan.

Davlatda yana to'rt turdagi lavozim mavjud bo'lib, maxsus tayinlov asosida faoliyat yuritmasdan, balki ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar ushbu mansablarga har qanday shaxs tayinlanishi mumkin bo'lgan. Aniqrog'i, amirga ma'qul bo'lgan olimlar, saidlar, xojalar, o'zbeklar va boshqalardan biriga topshirilgan mir asad, fayzi, sadr va sudur deb nomlangan lavozimlar.

Agar fayzi olim yoki said bo'lsa, unga muqaddas Buxoro shahrining tashqi qismi muxtasibliigi topshirilgan. Agar mir asad olim yoki said bo'lsa, unga saidlar o'rtasida rabot (kichik shaharcha)da bir farsang oralig'ida muxtasiblik vakolatini amalga oshirish yuklatilgan. Sadr – Buxoro shahri rabot ichidagi bir farsang masofada joylashgan vaqflar hisob-kitobini yuritgan bo'lsa, sudur rabot tashqarisidagi vaqflarni boshqarish masalasi bilan mashg'ul bo'lgan¹⁸.

Amirlik markaziy boshqaruvida davlat boshlig'ining tashkiliy-ijrochilik ishlarini olib boruvchi bo'limi mavjud bo'lib, unda quyidagi to'rt asosiy mansabdor shaxs o'ziga belgilangan vakolatni amalga oshirgan. Jumladan, devonbegi – tanho masalalarini qayd etuvchi daftarni yuritish mudiri; mushrif – hukmdor tomonidan taqdim etilgan ashyolar, kiyim-kechaklar, qalqonlar, sovutlar va boshqa sovg'alarni yozib qoldirish ishlari bilan shug'ullangan; daftardor – tanho yoki suyurg'oldan foydalanish bo'yicha tasdiqlangan yoxud rad etilgan shaxslarning ma'lumotini yuritgan; tanobchi devon – bahor va kuz oylarida xiroj yerlaridan tushadigan tushumlarni yurituvchi lavozimda xizmat qilgan.

Undan tashqari amirlik markaziy boshqaruvida uncha yuqori bo'lmagan mansablar ham mavjud bo'lib, ular o'zlariga aniq belgilangan vazifani amalga oshirganlar. Ushbu lavozimlardan birinchisi bu – kutubxonachi bo'lib, barcha ilm-ma'rifatga oid bo'lgan kitoblarni va olimu-fuzalolar tomonidan yozib qoldirilgan asarlarni to'plab, saqlab yurgan. Baxshi – hukumatga aloqador bo'lgan qurilish

¹⁸ Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2012. –Б351.

ishlarining kirim-chiqim faoliyatini boshqarib turgan. Devoni sayisxona – shaxsan amir tomonidan tayinlanadigan, otlarning hisob-kitobi, tantanavor bezaklari, do'mbira va boshqa ashyolarini nazorat qiluvchi mansabdor shaxs. Devoni to'shakxona – amirga tegishli bo'lgan qimmatbaho kiyim-kechaklar, qurol-yarog'lar va boshqa nodir narsalarning ro'yxatini va ulardan foydalanganlik haqidagi ma'lumotlarni yurituvchi mansabdor.

Davlat boshlig'i mahkamasining ikki asosiy maxsus xodimi bo'lib, ular amirning kundalik ish yurgizish masalalari bilan bevosita mashg'ul bo'lgan. Parvonachi – amir farmonlari, yorliqlari va boshqa qarorlarini beklarga hamda boshqa mansabdor shaxslarga etkazish masalalari bilan shug'ullangan. Dodhoh esa – davlat boshlig'iga turli masalalar bo'yicha kelib tushadigan ariza va shikoyatlarni qabul qilib, unga etkazish hamda berilgan javoblarni o'z egalariga qaytarish vazifasi yuklatilgan.

Bundan tashqari amirning doimiy xizmatida to'rtta ishonchli vakil faoliyat yuritib, ular ham davlat boshlig'ining kundalik xizmatida bevosita ishtirok etganlar. Jumladan, kichik inoq, ulug' mehtar, hukmdor xazinasi devoni va dasturxonchi. Kichik inoqning asosiy vazifasi – amir muhri saqlanadigan qutichani asrab-avaylash bo'lgan. Undan tashqari amir nomiga keladigan marhamatnomalar, elchilarning xatlari yoki boshqa hujjatlarni dastlab kichik inoq qabul qilgan. Shundan so'ng, kichik inoq amirning buyrug'iga asosan hujjatni baland ovozda o'qib eshittirish uchun munshiyga topshirgan.

Ulug' mehtarning asosiy vazifasi esa, zakot undirish bilan bog'liq masalalarni tashkillashtirish bo'lgan. Amir xazinasi devoni – davlat yerlarining hisob kitobi, amirga tegishli mol-mulklar, amir haramiga ketadigan xarajatlar va zaruriy narsalar masalasida amirga bevosita ma'lumot berib turgan. Dasturxonchi esa amir dasturxonini bezatish, bazmlarni tashkillashtirish va amir mahkamasiga xizmat qiluvchi oshxonada umumiy boshqaruvni amalga oshirish bilan band bo'lgan.

Davlat boshqaruvida boshqa bir qator mansablar ham mavjud bo'lib, ular asosiy vazifa bilan birga qo'shimcha vakolatlarga ham ega bo'lgan. Masalan,

to'qsabo – amir majlisi dasturxonini nazorat qilish bilan birga, Harkanrud tumanining hokimligi va mirobligi ham uning qo'lida edi. Shu bilan birga to'qsabo harbiy harakatlar chog'ida amir bayrog'ini ko'tarib yurgan¹⁹.

Eshikog'aboshi esa davlat boshlig'i o'z saroyida bo'lgan vaqtda uni qo'riqlash bilan bir qatorda Shofirkon tumanini boshqarish va bu hududlarda suv taqsimotini nazorat qilgan²⁰.

Miroxur – amir otxonasida ishni tashkil etish bilan birga Komi Abu Muslim tumani mirobligi va obodonlashtirish masalasi bilan shug'ullanar edi.

Yana uchta mansab mavjud bo'lib, ushbu mansablar harbiy-ma'muriy xarakterga ega edi. Ulardan birinchisi, qo'rchiboshi deb atalib, amir miltig'i va boshqa qurol sozligi uchun javobgar bo'lgan. Udaychi esa harbiy harakatlar jarayonida naqibning ko'rsatmasiga binoan navkarlar va qo'shinning taqsimlanishi va joylashuvini kuzatish vazifasini bajargan. Qorovulbegi – soqchilar va qorovullar boshlig'i sanalib, davlatning asosiy ichki va tashqi xavfsizligi masalalarini nazorat qilib turgan.

Amirlikda shig'ovul, miroxo'rboshi, mirshab kabi amallar bo'lib, ular ham o'ziga xos ravishda tegishli vazifalarni ado etganlar. Masalan, shig'ovul – davlat vakillari va elchilarni qabul qilib, ularning faoliyatini nazorat qilish bilan shug'ullangan. Miroxo'rboshi – hukmdorga tegishli bo'lgan otlarga em-xashak etkazish masalasini tashkil qilib, nazorat ostiga olgan. Mirshab esa shaharni qo'riqlash vazifasini bajargan.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, markaziy boshqaruvda o'sha davrda o'zga davlatlarda amalda mavjud bo'lmagan tartib, ya'ni harbiy yig'inlar paytida mahalliy boshqaruv vakillari markaziy boshqaruvda bevosita ishtirok etganlar. Chunonchi, chandavul, qorovul, yo'lchi va josus kabi.

Davlat mahkamasida boshqa bir qator xizmatchi xodimlar bo'lib, ular faqatgina tegishli xizmat vazifalarini bajarganlar. Ular qatoriga jibachi, sadaqko'rchi, qilichko'rchi, mo'zabardor, oftobachi, ro'ypokbardor, qurutbardor,

¹⁹ Шукуриллаев Ю. Қўшин бошқаруви тарихидан // Жамият ва бошқарув. 2006. –№2. –Б. 48.

²⁰ Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2012. –Б.345.

tarkashbardor, gulobi, mufarrix, dastorband, jig'oband, tamakisoz, otashbardor, to'g'bichi, shukurchi, nayzabardor, jilovchi kabilar. Masalan, jibachi harbiylar uchun mahsus kiyim tiksa, mo'zabardor amirning oyoq kiyimlarini saqlagan. Ro'ypokbardor amirning pardoz-andozi bilan, tarkashbardor esa uning yotog'ini tozaligi va saranjomligiga shaxsan javobgar bo'lgan. Undan tashqari otashbardor davlat mahkamasini yoritish masalalariga javobgar bo'lgan bo'lsa, nayzabardor bilan jilovchi amirning shaxsiy qurol-aslahalari va ot-aravasini har qanday holatda tayyor turishiga javobgar bo'lgan. Shu bilan birgalikda saroy ahliga doimiy ehtiyojdagi mol-mulklarni xarid qilish bilan shug'ullanuvchi mansabdor shaxslar ham mavjud bo'lgan. Ular qatoriga yaroqchi, bo'xcha-bardor, anbardor va mevador kabilarni kiritish mumkin.

Markaziy boshqaruvda har bir sohani, aniqrog'i savdo-sotiq, hunarmandchilik, ishlab chiqarish kabi masalalarni boshqarib turuvchi vakillar tayinlangan. Masalan, sharbatdor – amirlikda turli ichimliklarni tayyorlash va etkazishni tashkil etgan bo'lsa, zargarboshi zargarlar faoliyatini nazorat qilib turgan. Me'morboshi esa shaharning bosh me'mori hisoblanib, shaharni bezash va qurilish ishlariga umumiy rahbarlikni amalga oshirgan. Farroshboshi shaharni tozalash va obodonlashtirish ishlarini boshqargan.

O'z o'rnida ta'kidlash lozimki, amirlikda fuqarolarning xavfsizligini ta'minlashga doir bir qator ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, fuqarolarni yo'llarda o'g'ri, talonchi, bosqinchi va turli isyonchilar hujumidan himoya etish maqsadida bir qator mansablar joriy etilgan edi. Ular qatorida zindonband, jilband, jallod va bandiband²¹ kabi amaldorlarni sanab o'tish mumkin.

Amir yoki uning vakolati doirasida tayinlangan mansabdor shaxslar, ya'ni amirning joylardagi vakili, mahalliy boshqaruvchilar hamda beklar davlatning mahalliy boshqaruv organlari hisoblangan. Beklar yuqori tabaqa vakillaridan bo'lib, asosan yirik yer egalaridan tayinlangan.

²¹ Abdurahimova N. A. va boshq. Davlat muassasalari tarixi. Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent: Sharq, 2007. – B. 118.

Qoida bo'yicha mansablar qarindoshlik asosida berilgan, ammo shuni alohida ta'kidlash joizki, oddiy fuqaro ham bek bo'lishi yoki aksincha bek oddiy fuqaroga aylanib qolishi mumkinligi o'z navbatida beklik boshqaruvini mas'uliyatli vazifa ekanligidan dalolat beradi.

Mahalliy boshqaruvni amalga oshirgan beklar ko'pgina hollarda boshqaruv masalasida markaziy boshqaruv tartibini joriy etishga harakat qilar edilar. Shuning uchun amirlikning ayrim hududlarida vaqti-vaqti bilan mavjud hokimiyatni tan olmaslik holatlari kuzatiladi. Har qaysi bek o'zining saroyiga, mansab va unvoniga ega bo'lgan. Beklarning ishlarni boshqarish va tashkillashtirish bo'yicha kotiblari bo'lib, hududlardan tushadigan soliq va boshqa majburiy to'lovlarni nazorat qilgan. Xo'jalik ishlarini dasturxonchi deb nomlangan xazinabon boshqargan.

Buxoro amirligida bekliklar huquqiy maqomi bo'yicha bir-biridan farq qilgan. Masalan, Samarqand bekligi nufuzliligi, Qarshi bekligi ko'p hollarda davlat boshlig'i merosxo'ri hokimligi bilan, Chordjo'y bekligi esa urug' davomchilariga, Buxoro bekligi esa qushbegining o'zi tomonidan boshqarilganligi tufayli keng imtiyozlarga ega bo'lgan. Umuman olganda, bekliklarning maqomi ularning davlat va jamiyatga keltiradigan foydasi miqdoriga bog'liq bo'lgan. Beklar asosan rentadan daromad olishar, chunki, ular amirdan hech qanday moyana haqi olmaganlar, o'z navbatida ular aholidan soliq va boshqa majburiy to'lovlarni yig'ish ishlariga bosh-qosh bo'lganlar. O'z o'rnida beklar amirning amaldorlari sanalib, amir tomonidan farmon asosida tayinlanganlar hamda amirga hududiy birliklar bo'yicha iqqisodiy, ijtimoiy va siyosiy masalalar yuzasidan hisob berib turganlar. Yuqoridagi xususiyati bilan beklar ilgarigi, ya'ni xonlik davridagi bek-amir lavozimidan keskin farq qiladi. Beklik mansabi Buxoro amirligi tomonidan belgilab qo'yilgan "Unvonlar ro'yxati" bo'yicha mansablik unvoni tizimida 9 (to'qqiz) darajadagi unvonlar toifasiga kirgan²².

Buxoro amirligi mahalliy boshqaruvida harbiy-ma'muriy amaldorlarning mavqei baland bo'lgan. Amir va uning maxfiy xizmati tomonidan amalga oshirib

²² Исмоилов М., Шаропов А. Тарих атамалар луғати. –Тошкент: Akademnashr, 2013. –Б.66.

turilgan nazorat ko'pgina amaldorlarning o'z mansablarini suiste'mol qilishlarini oldini olganligi ahamiyatga molikdir.

Amir (arab. — amr qiluvchi, boshliq, hokim) — lashkarboshi, hokim, bek. XVIII asr oxiridan e'tiboran Buxoro xonligi hukmdorlari o'zlarini amir deb atay boshlaganlar.

Amlokdor (arabcha, amlok, mulk so'zining ko'pligi, fors-tojikcha dor — ega). Buxoro xonligidagi bekliklarga qarashli eng kichik ma'muriy bo'linma (amloqdorlik)ni boshqaruvchi amaldor. Amlokdor aholining o'ziga to'q vakillaridan bo'lib, bek tomonidan tayinlangan va bir necha katta va kichik qishloqlar uning ixtiyorida bo'lgan. U xiroj yig'ish, dehqonlar etishtirgan hosilni hisobga olish, soliq to'lamaganlarni jazolash, jarima solish kabi ishlar bilan shug'ullanib, kotib (mirzo), mirob, amin, oqsoqollar yordamida amlokdorlikni idora qilgan.

Amin — Buxoro amirligi va Turkiston general-gubernatorligida bir yoki bir necha kichik qishloqni boshqaruvchi hamda xalq tomonidan saylangan amaldor. Buxoro amirligida amin amlokdorga, Turkiston general-gubernatorligida esa bo'lis (volost) boshlig'iga bo'ysungan. Aminning asosiy vazifasi aholidan o'lpon va soliq yig'ish, aholi ustidan nazorat qilish, suv taqsimlash (Amini ob) edi. Bozorda mol sotuvchilardan bozor haqi yig'uvchi amaldor ham amin deyilgan.

Arbob - Buxoro amirligida qishloq miroblarining boshlig'i.

Bakovul, bakovul — Buxoro amirligida saroy dasturxonchisi, hukmdorga taom tortishdan oldin uni avval o'zi totib ko'ruvchi bosh oshpaz.

Bek atka — Buxoro amirligida amirzodalarni tarbiyalab voyaga yetkazuvchi shaxs.

Darbon — Buxoro amirligida saroy xizmatchisi; Buxoro hayotini zimdan kuzatib, poytaxt xavfsizligini ta'minlab turuvchi harbiy qism va tegishli qurol-yarog'lar mutasaddisi (boshqaruvchisi). Darbon ixtiyorida zindon yoki Arkda qamalgan mahbuslar ham bo'lgan; amirlik uchun xavfli hisoblangan jinoyatchilarni so'roq qilgan. Darbon to'pchiboshi yoki "to'pchi boshiyi Arki oliy"

ham deb atalib, qushbegi bilan ikkalasi har qanday vaziyatda ham Arkni tark etmasliklari lozim bo'lgan.

Devoni to'shakxona – Buxoro amirligida davlat omborxonasi (to'shak, qurol-yarog', kiyim-kechak) hisob-kitobini olib boradi.

Miroxur – Buxoro amirligida hukmdorning eng yaqin kishilariga beriladigan to'rtinchi sharaflı rutba. Miroxur saroy otboqarlariga etakchilik qilishdan tashqari, amir haramini ehtiyotlash, u yerga oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa zaruriy narsalar keltirish bilan ham mashg'ul bo'lgan.

Mushrif – Buxoro xonligida xazinadan beriladigan sovg'a-salomlarni ajratuvchi, hisobga oluvchi amaldor.

Buxoro amirligida:

- a) oliy davlat nazoratchisi (Mushrifi kalon);
- b) amirning shaxsiy kotibi lavozimi hisoblangan²³.

Suvchi – suv tashib beruvchi maxsus kasb bo'lib, suv manbalaridan xonadonlar, guzarlar, choyxonalar va karvon-saroylarga suv tashib berib tirikchilik o'tkazishgan. Suvchilar suv tanqis ayrim shaharlarida, masalan, Buxoro amirligida XX asr boshlariga qadar mavjud bo'lgan. Buxoroda esa, suvchini meshkobchi deb ham atashgan. Shaharlarning suvdan foydalanish (vodoprovod) shoxobchalari bilan ta'minlanishi natijasida suvchiga ehtiyoj qolmagan.

Qo'shbegi - Buxoro amirligida mang'itlar sulolasi davrida bosh vazir, amirdan keyingi oliy mansab hisoblangan. Qo'shbegiga barcha viloyatlar va beklklarning hokimlari, beklari bo'ysungan hamda amirning poytaxtda bo'lmagan paytida u amirlikning barcha ishlarini boshqargan²⁴. Shuningdek, Qo'shbegi Buxoro atrofıdagi 11 ta tumanni (hozirgi Buxoro viloyatini) amir nomidan idora qilgan. Buxoro amirligida Qo'shbegilar 2 ta bo'lgan: "Qo'shbegiyoı bolo" (yuqori Qo'shbegi) va "Qo'shbegiyoı poyon" (quyi Qo'shbegi). Qo'shbegiyoı bolo arkda, ya'ni baland qo'rg'onda yashagan va saroy ishlarida etakchi mavqeni egallagan. U doimiy ravishda arkda amir bilan muloqotda bo'lib turgan. Qo'shbegiyoı poyon –

²³ Исмоилов М., Шаропов А. Тарих атамалар луғати. –Тошкент: Akademnashr, 2013. –Б.284.

²⁴ Усмонов Қ., Содиков М., Бурхонова С. Ўзбекистон тарихи. Дарслик. –Т., 2005. –Б. 174.

bosh zakotchi esa ark quyisidagi hovlilardan birida yashab, amirlik hududidagi butun soliq ishlarini nazorat qilib turgan. Mamlakatda favqulodda vaziyat yuz bersa yoki urushlar boshlansa har ikki lavozim birlashtirilib, “kulli Qo’shbegi” (“kull” arabcha so’z bo’lib, “barcha” degan ma’noni bildirgan) lavozimi joriy qilingan. Kulli Qo’shbegi amirlikda butun hukumat ishlarini o’z qo’lida to’plagan va shoshilinch qarorlar qabul qilgan. Buxoro amirligida Ostonaqul qo’shbegi, Nasrullo qo’shbegi kabi katta nufuzga ega Qo’shbegilar bo’lgan²⁵.

Biy — 1) qabilaning yoki qabilalar ittifoqining boshlig’i, to’rasi; 2) yuqori mansabli kishilarni ulug’lash uchun ishlatilgan so’z yoki ularga be-rilgan unvon; 3) ko’chmanchi va yarim ko’chmanchi turkiy xalqlarning urug’ oqsoqollariga berilgan unvon. 4) Buxoro xonligida xizmat pog’onasining 9-mansabi; amorat panoh unvoni bo’lgan. Bu unvonni olgan shaxs uni keyingi mansablarni egallaganda ham o’zida saqlab qolgan.

Dastorband (fors, dastor – salla va band – bog’lamoq) – podshoh yoki xonningallasini o’rab qo’yadigan xizmatkor. Bu xildagi lavozim Buxoro xonligida bo’lganligi XVIII asr manbalarida qayd etilgan. Dastorban oliy hukmdorning yaqin va ishonchli a’yonlaridan hisoblangan.

Devonbegi –Buxoro xonligida moliya va xo’jalik ishlarini olib boruvchi mansabdor.

Devoni arabxona - Buxoro xonligida mamlakat hududida yashaydigan arablar ishlari bilan shug’ullanuvchi devon. Arablar Buxoro xonligida aloxida imtiyozlarga ega bo’lganlar. Ularning bajarilishi bo’yicha ishlarni shu devon boshqargan.

Devoni vazir (kalon) Buxoro xonligida davlat daftar yozuvlarini nazorat qiluvchi va boshqa devonlar ishini boshqaruvchi devon. Viloyatlar, xiroj, tanho, mulk yerlaridan tushumlar daftari shu devoni vazirda saqlangan.

Dorug’a, daruxachi, dorug’achi (mo’g’ulcha — nazoratchi, shahar boshlig’i) - Buxoro xonligida shaharning harbiy komendanti²⁶.

²⁵ Воҳидов Ш. Қўқон хонлиги ва Бухоро амирилигида унвон ва мансаблар. –Т., 1996. –Б. 35.

²⁶ Ҳофиз Таниш ал-Бухорий. Абдуллонома (Шарафномаи шоҳий). 1-ж. – Т., 1999. –Б. 217.

Inoq – qadimgi turkiy runiy bitiklarida “ishonch” ma’nosida qayd etilga. Buxoro xonligida hukmdorning ishonchli kishisi, mansabdor. Xonlikda ulug’ inoq va kichik inoq bo’lgan. Ulug’ inoq darajasiga ko’ra, ko’kaltosh va ulug’ qushbegi (qushbegi kalon)dan so’ng turgan. Ulug’ inoq asosan, hukmdor farmonlarini kichik mansabdagi amaldorlarga etkazish va amir qabuliga muyassar bo’lganlarni kiritish bilan shug’ullangan. Kichik inoq ham xonning ishonchli kishisi bo’lib, ba’zan saroydan otga mingan holda chiqish huquqiga ega bo’lgan. O’z lavozimiga ko’ra, ulug’ mehtar, devoni sarkor va dasturxonchidan yuqori turgan. Kichik inoqqa hukmdorning muhrlari solingan qutichani ehtiyot qilish topshirilgan. Kichik inoq, shuningdek, amir nomiga tushgan ariza va shikoyatlarni qabul qilgan; elchilarni qabul qilish paytida ular keltirgan xatlarni ochib, amirning shaxsiy kotibi (munshiy)ga taqdim etgan²⁷.

Ko’kaltosh, Ko’kaldosh – rizo’iy (emishgan) birodarlar, ya’ni biror doya (enaga)ni uning o’g’li bilan birgalikda emgan begona bola. Shunga ko’ra, podshoxning rizo’iy birodariga “Ko’kaltoshxon” degan laqab berilgan. Ko’kaltosh istilohi, “G’iyos ul-lug’at” (“Lug’atlar madadkori”)da aytilishicha, turkiy “ko’ka” (“enaganing o’g’li”) va “tosh” yoki “dosh” (“sherik”) so’zlaridan iboratdir. Bu ikki so’z orasidagi “l” harfi esa keyinchalik qo’shilib qolgan bo’lib, ilgari bo’lmagan. “Ko’ka” (“aka”) so’zi hozirgacha qozoq tilida qo’llanilib keladi. Buxoro xonligida mamlakat ichki xavfsizligini ta’minlash ishlari bilan shug’ullanuvchi amaldor.

Muboshir (arabcha – ish – yurituvchi) – biror ishga boshchilik qiluvchi, boshqaruvchi, boshliq. Buxoro xonligida markaziy davlat idorasining moliya devonidagi amaldor²⁸.

Mushrif (arabcha – boshqaruvchi) – Buxoro xonligida xazinadan beriladigan sovg’a-salomlarni ajratuvchi, hisobga oluvchi amaldor. Buxoro amirligida mushrif a) oliy davlat nazoratchisi (mushrifi kalon); b) amirning shaxsiy kotibi.

Oftobachi – O’rta Osiyo xonliklarida saroy mansabi. Masalan, Buxoro

²⁷ Воҳидов Ш. Қўқон хонлиги ва Бухоро амирилигида унвон ва мансаблар. – Тошкент, 1996. –Б. 154.

²⁸ Исмоилов М., Шаропов А. Тарих атамалар луғати. –Тошкент: Akademnashr, 2013. –Б.274.

xonligi amir qo'l yuvayotgan paytda oftoba (obdasta) tutib turuvchi lavozimli shaxs hisoblangan. Saroyga kelgan mehmonlarga ham oftobachi xizmat qilgan.

Og'aliq – Buxoro xonligidagi mansabdor shaxs. Xon, amir maslahatchisi. Shayboniylar davrida joriy etilgan. Xonlikdagi 4 beklik (Chorjo'y, Qarshi, Shahrisabz va Kitob) uzoq vaqt markaziy hokimiyatga bo'ysunmay kelganlari tufayli xonlik bilan bekliklar aholisi o'rtasida vositachilik rolini o'ynovchi oftobachi mansabi ta'sis etilgan. Yurtning eng hurmatli, nufuzli oqsoqollaridan xalq yig'inlarida og'aliq mansabiga tavsiya etilgan kishiga amirlik tomonidan maxsus yorliq berilgan. Og'aliq xonlik va xalq o'rtasidagi vakil hisoblanib, aholi turmushining barcha dolzarb masalalarini echish huquqiga ega bo'lgan. Viloyat va saltanat miqyosidagi eng muhim masalalarda ham og'aliqqa murojaat qilingan. U xalq ommasini amaldorlarning turli tazyiqlaridan himoya qilgan. Og'aliqning eng asosiy vazifasi – xalq bilan bek va amir o'rtasida murosachilik yuritish, fuqarolar kayfiyatidan xabardor bo'lish hamda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan turli ko'ngilsiz tasodiflarni bartaraf etishdan iborat edi.

Parvonachi – hukmdor farmoni va buyruqlarini bituvchi kotib. Buxoro xonligida parvonachi amirning tayanchi hisoblangan oliy lavozimlardan biri, otaliq hamda devonbegidan keyingi uchinchi mansabdor shaxs. Parvonachi amir tomonidan chiqarilgan yorliqlarni arkoni davlat hamda beklarga taqdim etgan, ayni chog'da xonlikda yashovchi arablar ishi bilan shug'ullanish uchun mas'ul hisoblangan. Yuqori mansabga tayinlangan amaldor parvonachi taqdim etgan farmonni uch kun mobaynida o'zallasiga qistirib yurishi lozim bo'lgan. Amir qabulxonasida parvonachi uchun maxsus o'rindiqlik bo'lgan. Parvonachi ba'zan harbiy harakatlarda ishtirok etib, muayyan qismlarga qo'mondonlik qilgan²⁹.

Xazinachi – hukmdorning pullari, qimmatbaho buyumlari va boshqa moddiy boyliklarini saqlovchi shaxs. Buxoro xonligida xazinachi nisbatan quyi mansablardan biri hisoblangan.

Shig'ovul, shag'ovul - saroy mansabi. Buxoro xonligida elchilarni xon qabuliga olib kiruvchi mansabdor shaxs. Shig'ovul saroydagi qabul marosimlarini

²⁹ Усмонов Қ., Содиков М., Бурхонова С. Ўзбекистон тарихи. Дарслик. –Т., 2005. –Б. 174.

boshqargan va nazorat qilgan³⁰.

Yosh buxoroliklar – Buxoro amirligidagi jadidlar partiyasi (firqasi). Dastlab “Tarbiyai atfol” (“Bolalar tarbiyasi”) maxfiy jamiyati shaklida tuzilgan. 1910-20 yillarda “Yosh buxoroliklar” partiyasi deb atalgan. Unga taraqqiyparvar ziyolilar, savdogarlar va shahar kambag'allari vakillari kirgan. Ular boshida mavjud amirlik tuzumi doirasida demokratik islohotlar o'tkazish, konstitutsiyaviy monarxiya o'rnatish orqali amirning mutlaq hokimligini cheklab qo'yish tarafdori bo'lgan. Abdulvohid Burhonov, Mukammil Burhonov, Sadriddin Ayniy, Usmonxo'ja Po'latxo'jayev (Usmon Xo'ja), Otaulla Xo'jayev, Ahmadjon Hamdiy (Abusaidov), Homidxo'ja Mehriy, Musa Saidjonov, Mirzo Siroj Hakim “Yosh buxoroliklar”ning dastlabki tashkilotchilari edi. Keyinchalik, uning faoliyatida Fitrat, Fayzulla Xo'jayev va Muhiddin Mansurov katta rol o'ynashdi. “Yosh buxoroliklar” iqtidorli yoshlarni Istanbul, Qozon, Ufa, Boqchasaroyga o'qishga jo'natdi. Ular partiyaning moddiy mablag'i hisobidan ta'lim olishgan. Fayzulla Xo'jayev va Muhiddin Mansurov partiyaga katta mablag' ajratgan. Istanbulda “Buxoro ta'limi maorif jamiyati” tashkil qilinib, jamiyat a'zolari Turkistonda maorif tizimini rivojlantirishda muhim ishlar qilishdi. Jamiyatning ko'magi bilan Fitrat va boshqa taraqqiyparvarlarning asarlari Istanbulda nashr qilinib, Turkiston mintaqasiga tarqatildi. “Yosh buxoroliklar”ning maqsadi yangi usul maktablarini ochish, bolalarning savodini tezroq chiqarish, ijtimoiy ongini o'stirish, maktab, Madrasa, o'quv tizimini isloh qilish edi. Bu davrga kelib Buxoro shahrining o'zida vaqf daromadlari hisobiga faoliyat ko'rsatadigan 108 ta madrasa bo'lib, ularning 60 tasi asosiy ta'lim muassasalari hisoblangan³¹.

2.2. Buxoro amirligida harbiy, diniy va sud sohasidagi davlat muassasalari faoliyati

Buxoro amirligi ijtimoiy-siyosiy hayotida, davlat boshqaruvida harbiy-ma'muriy va din peshvolarining tutgan o'rni ham o'ziga xos bo'lgan. amirlikda din

³⁰ Бобоев Х., Хидиров З ва бошқ. Ўзбек давлатчилиқ тарихи (II китоб). –Тошкент: Fan va texnologiya, 2009. – Б.227.

³¹ Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2012. –Б.488.

vakillari juda ko'p bo'lgan va ular ta'sirli kuchga ega bo'lishgan. Din vakillari aksariyat hollarda imtiyozli guruhlardan - sayyid va xo'jalardan tashkil topgan edi.

Rossiya istilosiga qadar bo'lgan davrda jamiyat madaniy hayotiga mas'ul bo'lgan shoirlar, mudarrislar, talabalar hayotida jiddiy o'zgarishlar bo'lmagan. Asosiy soliq to'lovchi aholi, jamiyat moddiy boyliklarini yaratuvchi ijtimoiy tabaqa bo'lgan raiyat, ijtimoiy tabaqaning quyi qismida qolib, ijtimoiy adolatsizliklarning asosiy og'irligi ular zimmasida edi. Mang'itlar davrida ham Buxoroda qulchilik saqlangan edi. Qullar asosan rus, eron millatlariga mansub bo'lib, harbiy talonchilik yurishlarida qo'lga olinar va turkmanlar yoki qozoqlar tomonidan Buxoro bozorida sotilar edi. amirlikda davlatni ijtimoiy tabaqalarga bo'lishda aholining qaysi millat yoki urug'ga mansubligiga ham e'tibor berilgan.

Buxoro qozikaloni huzurida qirq a'lam va 12 muftiydan iborat rivoyatlar tuzuvchi muftiylar devoni bo'lgan. Amirlikda musulmon ruhoniylari yuqori mavqega ega bo'lgan. Ular katta yerlarga egalik qilar edi. Shayxulislom bosh ruhoniy va adliya ishlarining sardori hisoblangan. U jamiyat ma'naviy hayotini boshqargan. Sud hokimiyati ruhoniylar qo'lida bo'lgan. Barcha qozilar (qozi-ul-quzzot) qozikalonga bo'ysungan. Davlat boshqaruvida u yoki bu lavozim vazifasiga qarab o'zgarib turgan.

Buxoro qozi kaloni huzurida a'lam va 12 muftiydan iborat rivoyatlar tuzuvchi muftiylar devoni bo'lgan. Amirlikda musulmon ruhoniylari yuqori mavqega ega edi. Ular katta yerlarga egalik qilardi. Shayxulislom bosh ruhoniy va adliya ishlarining sardori hisoblangan. U jamiyat ma'naviy hayotini boshqargan.

Sud hokimiyati ruhoniylar qo'lida bo'lgan. Barcha qozilar qozi kalonga bo'ysungan. Davlat boshqaruvida u yoki bu lavozim vazifasiga qarab o'zgarib turgan.

Muhtasib (arabcha – nazorat qiluvchi) Buxoro amirligida Muhtasib shayx ul-islom va muftiydan keyin uchinchi mansab hisoblangan.

Sayyid, sayd (arabcha – janob) Buxoro amirlari hamda turli ijtimoiy tabaqalarga mansub bo'lgan shaxs ham payg'ambar avlodidan hisoblanmasa-da, o'zlarini shu nom bilan atayverganlar.

Qozikalon – bosh qozi, eng yuqori darajadagi qozi (oliy mahkama raisi). Buxoro xonligida barcha qozilar, dindorlar va mullalarning boshlig'i, ya'ni raisi bo'lib, ular ustidan nazorat qilgan. Bosh qozi qam diniy, ham adliya ishlarini boshqargan. Qozikalon fuqarolarning da'volari, janjallari bilan ham shug'ullangan. Oliy jazo talab qilinadigan jinoiy ishlar uning vazifasiga kirmagan. Bu ishlarni xonning o'zigina ko'rgan. Qozikalon rasmiy qabul marosimlarida xonning o'ng tomonida, 1-o'rinda o'tirgan³².

A'lam (arabcha, bilag'on, eng olim) – diniy-huquqiy masalalar yuzasidan fikr beruvchi diniy amaldor. Odatda, muftiylar tuzgan fatvo yoki rivoyatga a'lam muhr bosgach, u kuchga kirgan va qozilar o'sha hujjat asosida hukm chiqargan. Buxoro xonligi davrida har bir qozi yonida a'lam bo'lgan.

Buxoro amirligi davlat boshqaruvida harbiy-ma'muriy amaldorlar katta o'rin tutgan. Mamlakat qo'shinlari asosan otliq va piyoda askarlardan tashkil topgan bo'lib, ular o'q-yoy, uzun nayza, gurzi, uzun dastalijang boltasi (tabarzan), changak kabi hujum qurollariga ega bo'lgan. Bu davrda navkarlarning himoya uchun qalqon (sipar)dan foydalanganliklari, sovut – jovshan (forscha baxtar) hamda temir simdan mayda qilib to'qilgan, usti ipak va baxmal mato bilan yopilgan qurol yoki jiba (jeva) – temir yoki po'latdan ishlangan maxsus kiyim kiyib jang qilganlari manbalarda aks etgan. Qo'shinning asosiy jangovar qismini suvoriylar tashkil etgan. Shu sababli ham o'zaro urushlarda otlarning himoyasiga katta e'tibor berilgan va o'q o'tmasligi uchun ularning ustiga maxsus yopinqich – gejm (kejim) yopilgan. Mamlakat qo'shini tarkibida dushmanning shahar va mudofaa qo'rg'onlarini ishg'ol etishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan naftandozlar, manjanaqchilar va tosh otuvchilar ham bo'lgan.

Buxoro qo'shinarining tarkibiy tuzilishi, jang qilish tartiblari Chingizxon va Amir Temur qo'shinlari harbiy tuzilishi, urush taktikasiga asoslangan. Shu bilan birga, ular turkiy xalqlarga xos bo'lgan qadimgi jang usullarini ham o'zlashtirgan. Qo'shin tarkibida to'g'chi qism, ya'ni bayroq ostida ehtiyotda turuvchi (tug'ni qo'riqlovchi) 20-30 min kishilik jangovar harbiy bo'linma hamda zabongiri, ya'ni

³² Исмоилов М., Шаропов А. Тарих атамалар луғати. –Тошкент: Akademnashr, 2013. –Б.531.

dushman tomonidan yashirin ravishda “til” tutib keluvchi maxsus bo`linma va xabargiri – dushman to`g`risida umumiy ma'lumot keltiruvchi bo`linmalar ham bo`lgan. Ayrim manbalarning dalolat berishicha, favqulodda vaziyatlarda eng qaltis harbiy vazifalarni bajarishga mo`ljallangan jangovar qismlar ham bo`lib, ular asosan saralangan o`zbek jangchilaridan tashkil topgan. Amirning xos qo`riqchilari ham saralangan o`zbek navkarlaridan tuzilgan.

Buxoro amirligida oliy bosh qo`mondan amir bo`lib, u qo`shinni turli darajadagi harbiy amaldorlar yordamida boshqargan. Mamlakat qo`shini ham Chingizxon va Amir Temur qo`shinlaridek, 10 minglik korpuslar – tumanlarga bo`lingan. Ularga no`yon deb ataluvchi harbiy sarkardalar boshchilik qilgan. Tumanlar o`z navbatida, minglik, yuzlik, o`nliklarga ajralgan. Amirlikda qo`shinni jangga hozirlash, harbiy amaldorlar va navkarlarga maosh to`lash va boshqa tashkiliy ishlar bilan maxsus amaldor – tavochi shug`ullangan. Qo`shinni qurol-yarog` bilan ta'minlashga mas'ul bo`lgan amaldor -jevachi bo`lib, u amirning qurol-aslahalariga ham javobgar hisoblangan. Harbiy amaldorlar va navkarlarga xazinadan beriladigan maoshdan tashqari, harbiy yurishlar paytida qo`lga kiritilgan o`ljadan ham ma'lum miqdorda ulush ajratilgan.

XIX asrda mang`it amirlar davrida harbiy sohada jiddiy o`zgarishlar amalga oshirildi. Bunday islohotlar qisman bo`lsada, mang`itlar sulolasi asoschisi Muhammad Rahim tomonidan olib borildi. Buxoro amirligining harbiy qudrati, ayniqsa, Amir Nasrullo hukmronligi davrida o`zining eng yuqori nuqtasiga yetdi. Uning davrida Buxoroda muntazam armiya – sarbozlar (sipoh) qo`shini tashkil etildi. Ularning soni 40 mingga yaqin bo`lgan. Qo`shinlar otliq va piyoda jangchilardan tashkil topgan bo`lib, ularning qurollari asosan qilich, nayza va o`q-yoydan iborat edi. Buxoro amirligi qo`shinlari mamlakatning barcha shaharlarida, ayniqsa, chegara shaharlar (Jizzax, O`ratepa, Qorako`l, Marv)da joylashtirilgan. Bu davrda Buxoroda zambaraklar yasovchi chet ellik (Eronlik) mutaxassislar ham bo`lganligi mavjud. Biroq shunga qaramay, qo`shinni zamonaviy miltiqlar va zambaraklar bilan qurollantirish sohasida boshlangan ishlar tugallanmasdan qolib ketdi. Natijada XIX asrning 2-yarmiga kelib, Buxoro amirligining katta qismi

Rossiya qo`shinlari tomonidan bosib olindi. Buni o`z navbatida, XVII-XIX asrlarda mintaqamizda harbiy sohada hech qanday yuksalish bo`lmaganligi hamda zamonaviy qurol-yarog`larning yetarli emasligi bilan izohlash mumkin.

Bekliklarda ham o`ziga xos ma'muriy boshqaruv apparati tashkil etilgan bo`lib, ularga diniy-huquqiy masalalarni boshqaruvchi qozi, rais, muftiy kabi amaldorlar, soliq yig`uvchi (zakotchi), qo`shinni boshqaruvchi yasovulboshi, mirshab kabi amaldorlar va boshqalar mavjud bo`lgan.

Viloyatlar qozilari to`g`ridan-to`g`ri Buxorodan tayinlangan va o`z faoliyatida bekdan mustaqil bo`lgan. U odatda bekning harakatlari haqida maxfiy ravishda Buxoroga xabar berib turgan. Diniy amaldorlar mamlakatdagi sud hokimiyatini, shuningdek, ta'lim va tarbiya maskanlari bo`lgan madrasalar, boshlang`ich maktablarni, kundaliy hayotda katta o`rin tutgan masjidlar va boshqa shu turdagi ijtimoiy muassasalarni o`z nazoratlari ostiga olgan edilar.

Xonlikda o`rta asrchilik boshqaruv tizimining uzoq saqlanishi taraqqiyot va qo`shin kuch-qudratiga salbiy ta`sir ko`rsatgan. Qo`shinda dastlab misdan, XIX asr boshlarida cho`yandan quyilgan bir necha to`p bo`lgan. Sarbozlar o`q-yoy, nayza, qilich, oybolta kabi ibtidoiy qurollar bilan qurollangan. Xonlikda qo`shin asosan otliklardan tashkil topgan. XVIII asr oxiridagi ma'lumotga ko`ra, xon 10 ming kishilik qo`shin to`plash imkoniga ega bo`lgan. XIX asr 30-yillarida yollanma askarlar soni 19 ming kishi bo`lib, ular xizmatini turli shahar va harbiy istehkomlarda o`taganlar. XIX asr o`rtalarida harbiy qismlar, shuningdek to`p va multiqlar soni ortgan. Umumiy qo`mondonlik amiri lashkar zimmasida bo`lgan. Umuman xonlikda qo`shin har jihatdan zamon talabidan ancha orqada edi³³.

To`pchiboshi – harbiy lavozim. O`rta Osiyo xonliklarida harbiy vazifalarni bajargan amaldor (asosan, artilleriya boshqaruvchisi). Buxoro amirligida 2 ta to`pchiboshi unvoni mavjud bo`lgan: biri to`pchiboshiyi lashkar deb nomlangan bo`lib, Buxoro garnizonining boshlig`i vazifasini ado etgan, uni vaziri harb – harbiy vazir ham deb atashgan, unga barcha harbiy qismlarning sardorlari bo`ysungan. Davlat qurol-yarog` ombori – to`pxonaga mas`ul hisoblangan. Ushbu

³³ Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2012. –Б.352.

shaxs kutvol, bakovul, o'rag'a kabi mansab egalari qatori hukmdor qabulida ba'zan o'tirish huquqiga ega bo'lgan. Ikkinchi to'pchiboshi Buxoro qal'asi (arki) komendanti hisoblangan, shu bois to'pchiboshiyi darvozayi arki oli – “qal'a artilleriyasi sardori” deb yuritilgan, u o'z mavqeiga ko'ra, shig'avul, miroxurboshi, shixna (mirshab) kabi lavozimlar darajasida turgan³⁴.

Daha – o'n kishidan iborat jangovar bo'linma. Buxoro amirligida bunday harbiy bo'linma boshlig'i dahaboshi, dahboshi deb atalgan.

Dodxoh, dodxo – ushbu lavozim egasi Buxoro amirligida:

1) a) qal'a boshlig'i, qo'rboshi; b) qozixona ishlari ustidan nazorat olib boruvchi amaldor, raisi kalon.

2) Buxoro amirligida arzhilar shikoyatini amirga etkazib, javobini shikoyatchilarga bildiruvchi amaldor³⁵.

Tuqsoba, to'qsabo (eski o'zbekcha – o'z tug'iga ega bo'lgan) – harbiy qism sarkardasi, tuqsaboshi. Buxoro amirligida eshikoqo boshi, chig'atoy begi singari mansablardan keyingi, miroxurdan oldingi rutba hisoblanib, uning egasi amir saroyiga otda kirish, lekin hukmdor qabulida o'tirish huquqiga ega bo'lmagan shaxsni anglatgan. Bu mansabdor idishlarga ovqat suzish, kosalarga ichimlik, qatiq, muzdek suv quyish, ularni xizmatkorlar orqali mashvarat yoki kengash ahliga etkazishga mas'ul hisoblangan. U, shuningdek, Harqonrud tumanini va u yerda suv taqsimotini boshqargan.

Qora cherik – Buxoro amirligida muntazam qo'shin bilan baravar urush yoki tinchlik chog'ida xizmatda bo'lgan nomuntazam lashkar. Ehtiyoj bo'lmagan kezlarda Qora cherik uylariga tarqalib ketgan. Qora cherikni to'plash uchun hukmdor(amir) farmoni chiqqan va u bozorlarda jarchilar tomonidan e'lon qilingan. Har bir qishloq, shahar, viloyatdan yig'iladigan Qora cherik miqdori ilgaridan aniq bo'lganligi bois, amir buyrug'iga binoan, nomuntazam lashkar yetkazib berishda muammolar tug'ilmagan. Muntazam qo'shin otlar bilan ta'minlangan bir paytda, Qora cherik shaxsiy ulovi bilan harbiy harakatlarda

³⁴ Исмоилов М., Шаропов А. Тарих атамалар луғати. –Тошкент: Akademnashr, 2013. –Б.440.

³⁵ Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2012. –Б.351.

ishtirok etishi majburiy hisoblangan. Qal'a, qo'rg'onlarni muhofaza qilishda muntazam xizmatdagi askarlar soni kamlik qilsa, Qora cherikdan foydalanilgan. Ba'zan yurishda qatnashayotgan qo'shinning deyarli yarmini Qora cherik tashkil etgan.

Navkar, nukar (mo'g'ulcha noxor – do'st, o'rtoq) xon huzurida xizmat qiluvchi oliy tabaqali yigitlar. Navkarlar – qurollangan erkin kishilar bo'lib, o'z ixtiyorlari bilan xizmat qilishgan. Buxoro xonligida navkarlar xizmati uchun davlat tomonidan belgilangan maosh bilan ta'minlangan va majburiy harbiy xizmatni o'tagan. Harbiy harakatlardan bo'sh paytlarda navkar soqchilik vazifasini bajargan.

Tavochi (mo'g'ulcha - hisobchi) Buxoro xonligida harbiy nozir – naqibga qo'shinni joylashtirish, qurol-aslaha bilan ta'minlash, harbiy harakatlar vaqtida lashkarning ilg'or, ar'ergard, o'ng qanot, so'l qanot va markaziy qismlari hamda pistirmadagi vaziyatdan xabardor bo'lish mas'uliyati yuklatilgan.

Chag'davul, changdovul – Buxoro xonligida harbiy mansablardan biri hisoblanib, qorovul, yo'lchi va josusdan yuqori turgan. Ayni paytda arergard qo'shinida xizmat kiluvchi askar ham chag'davul istilohi bilan ifodalangan.

Qorovul - harbiy harakatlar chog'ida qo'shinning asosiy qismlaridan ancha masofada oldinda borib, yovning xatti-harakatidan xabardor bo'lib turuvchi, zarur paytlarda “til” tutib keltiruvchi maxsus suvoriy soqchi guruh (avanpost). Buxoro xonligida biror bir ayg'oqchi yoki talonchining mamlakat yoki lashkarga qo'shilib kirmasligi uchun yo'llarni muhofazalov-chi askariy guruh.

Amir Shohmurod Buxoro amirligi davlatchiligi tarixida o'z o'rniga alohida ega bo'lgan hukmdorlardan sanaladi. U turkiy mang'itlar sulolasi hukmdorlari ichida birinchi bo'lib sud – huquqiy islohotlarini amalga oshirdi. Davlatchilik tarixida “amiri ma'sum” (“Begunoh amir”) nomi bilan qolgan amir Shohmurodning hukmronlik yillari (1785–1800) Buxoroda markaziy hokimiyatning nisbatan mustahkamlanishi davri bo'ldi.

Amir Shohmurod tomonidan o'tkazilgan sud – huquqiy islohotlari mamlakatda sud ishlaridagi nohaqliklarga chek qo'yilishiga, sudlarda ishlarning erkin olib borilishiga hamda qozilar tomonidan odillik, adolat va insonparvarlik

ruhida sud jarayonlarini amalga oshirishga imkon yaratib berdi. Asosiy sud idorasi qozilik mahkamalari hisoblanib, qozikalon butun mamlakatning bosh qozisi (sudyasi) edi. Fuqarolik va jinoiy ishlarning barchasini qozilar ko`rib chiqqan. Sud ishlarini yuritish tartibi oddiy ko`rinishga ega edi.

Qoziga og`zaki va yozma ravishda ariza bilan murojaat etish mumkin edi. Keltirilgan murojaat, ariza yoki shikoyatnomalarga asoslangan holda qozining huzuriga aybdor yoki aybdorlar ishni boshlash uchun keltirilar edi. Qozilar tomonidan olib boriladigan sud jarayonida aybdorni ayblash yoki uning aybini isbotlash uchun shariat qonun – qoidalariga rioya qiladigan, rostgo`y, halol kishilarning guvohligi yetarli asosga ega edi. Guvohlar esa kamida ikki kishidan iborat bo`lmog`i lozim edi.

Sud jarayonida qozilar aybdorlarning moddiy ahvoli, avvalo aybning darajasiga qarab, so`ngra aybdorning qilmish uchun chin ko`ngildan pushaymon bo`lishi, zararni ixtiyoriy ravishda qoplashi, jabr ko`rgan shaxsdan uzr so`rashi kabi holatlarni inobatga olgan holda jazo tayinlagan.

Amir Shohmurod tomonidan o`tkazilgan sud – huquqiy islohotlarning muhim jihati shundaki, bu davrga kelib qozining hukmidan norozi bo`lgan taraf qozikalonga yoki amirga shikoyat qilish huquqiga ega bo`ldi. Qozikalonga yoki amir nomiga yozilgan shikoyatnoma o`rganib chiqilib, qozining hukmini asosli ravishda qozikalon bekor qilishi hamda qozikalon qarorini faqat amir bekor qilishi mumkin edi.

Amir Shohmurod tomonidan o`tkazilgan sud – huquqiy islohotlari o`sha vaqtda nafaqat Buxoro amirligida, balki boshqa xonliklarda ham sud va sudlovni ijobiylashtirish uchun ulkan qadam edi. O`z navbatida amir Shohmurod sud idoralarining qayta tuzilishi, tashkil topishi va quyi sud idoralari qozilarining tayinlanishi kabi yangiliklarni amalga oshirgan edi.

O`sha davrda sud idoralarini isloh qilish maqsadida amir Shohmurodning bevosita tashabbusi bilan qirq a'lamdan (qonunshunoslardan) iborat tarkibda oliy sud (qozixona) palatasi tuzildi. Ushbu palataning a'zolari, ya'ni qonunshunoslar shariat qonun-qoidalarini asosida amir Shohmurod tomonidan tuzilgan qoidalar

to'plami asosida quyi sud idoralari qozilarining hukmidan norozi bo'lib yozilgan arz va shikoyatnomalarni ko'rib chiqar edilar.

Amir Shohmurod tomonidan o'tkazilgan sud - huquqiy islohotlarining yana bir muhim yangiligi, bu oliy sud palatasida qirq a'lam (qonunshunoslar) ishtirokida ko'rilayotgan arz yoki shikoyatnomada da'vogarning shaxsan o'zi ishtirok etishining talab qilinishi bo'ldi.

Shunday qilib, amir Shohmurod davrida Buxoro amirligida yangi sud tizimi: qasaba (kattaroq qishloq), tuman, viloyat qozilari, Bosh qozi va qirq a'lam sudi vujudga kelib, eng oliy qozi amirning o'zi edi. Shariat huquqi asosida Shohmurod tuzgan qoidalar to'plami diqqatga sazovordirki, uni izlab topish va ilmiy jamoatchilikka yetkazish olimlarimiz oldidagi vazifalardan biri bo'lib turibdi. Chunki O'zbekistonda hukm surgan sulolardan chiqqan davlat boshliqlari qo'li bilan tuzilgan qoidalar to'plamlarini juda kam uchraydi. Shu o'rinda yana amir Shohmurodning sud islohotlari, ayniqsa, katta ahamiyatga molik ekanligini aytib o'tish lozim.

Xulosa qilib aytganda, Buxoro amirligida faoliyat yuritgan davlat muassasalar o'zlarining vazifalari va faoliyatlari bilan ajralib turgan. Ko'plab muassasalar Qo'qon va Xiva xonligida ham bir xil vazifa bajarganligi, yoki O'zbekiston xududida hukm surgan ayrim sulolar davrida ham faoliyat yuritganligini ko'rish mumkin.

XULOSA

Buxoro amirligining davlat muassasalari tarixi bo'yicha adabiyotlar va muhim tarixiy manbalarning mavjudligiga qaramay, ushbu mavzu etarlicha o'rganilmagan. Shu bois, XVIII asrning o'rtalaridan amirlik deb nomlangan davrdan boshlab to mamlakatda XX asrning 20-yillarigacha bo'lgan davr orlig'ida faoliyat yuritgan davlat muassasalari faoliyatini o'rganilishi bitiruv malakaviy ishini o'z oldiga qo'ygan maqsadidir.

Bitiruv malakaviy ishi yakuniga ko'ra quyidagi xulosalarga kelindi:

1. O'zbekiston hududida davlat muassasalarining tashkil topishi va ularning faoliyatini alohida o'rganish O'zbekiston tarixi, Buxoro amirligi tarixi, O'rta Osiyo va O'zbekistonda davlat muassasalari tarixi fanlaridan muhim manba sifatida foydalanish mumkin.

2. Buxoro amirligining shu davrdagi tarixi o'rganishda ko'rish mumkinki, amirlik Davlat Kengashi faoliyat yuritganini ko'rish mumkin.

3. Saroy va amirlik boshqaruvida faoliyat yuritgan davlat muassasalari faoliyatlari izchillik bilan o'rganishga yordam beradi.

4. Buxoro amirligida ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi rasmiy faoliyat yuritgan davlat muassasalari tarixini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

5. Buxoro amirligi davlat muassasalari faoliyatlari o'rganish orqali ularning har biriga tavsif berilib, boshqa davrlarda yoki Xiva va Qo'qon xonligidagi faoliyatlariga tarixiy nuqtai-nazardan solishtirildi.

6. Buxoro amirligi davlat muassasalari ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'rni, vazifasi va tarixiga e'tibor qaratildi.

7. Buxoro amirligi davlat muassasalarining davlat boshqaruv organlari va ularning tarkibi, turli yillarda egallab turgan mansablari to'g'risidagi ma'lumotlar mujassamlashtirilgan. Keltirilgan ma'lumotlar orqali arxiv fondlarining manbaviy ahamiyati nechog'lik muhimligi yana bir bor o'z tasdig'ini topdi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Buxoro amirligi davlat muassasalari faoliyatlari, ularni tashkil qilinishi masalalari, ularning vakolatlari kabi masalalar ilmiy muomalaga kiritilishida arxiv hujjatlari, tarixiy manbalar, bu davrga oid

manbalarni – Rossiya bosqini davriga oid, sovet mustamlakasi davriga oid, mustaqillik davriga oid manbalar orqali biz o'sha davrdagi boshqaruv tizimining qay darajada tashkil qilinganligini, undagi yutuq va kamchiliklarni tahlil qilish orqali ulardan tarixiy saboqlar chiqarishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Rasmiy adabiyotlar:

1.1. Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997.

1.2. Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998.

1.3. Каримов И. А. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. – Тошкент: Ўзбекистон, 2005.

II. Umumiy adabiyotlar:

2.1. Абдухалиқ Абдурасул ўғли. “Ипак мамлакати” ҳақида // Ўзбекистон тарихи моддий маданият ва ёзма манбаларда: Акад. А. Асқаров таваллудининг 70 йиллигига бағишланган илмий анжуман материаллари. – Тошкент, 2005.

2.2. Агзамова Г. А. Савдо йўллари // Темур ва Улуғбек даври тарихи. Муалифлар жамоаси. – Тошкент, 1996.

2.3. Abdurahimova N. A. va boshq. Davlat muassasalari tarixi. Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent: Sharq, 2007.

2.4. Абдурахимова Н. А., Эргашев Ф. Туркистонда чор мустамлака тизими. – Тошкент: Академия, 2002.

2.5. Бобобеков Ҳ., Каримов Ш., Содиқов М., Усмонов Қ., Холбоев С., Шоймардонов И. Ўзбекистон тарихи. Қисқача маълумотнома. – Тошкент: Фан, 2007.

2.6. Бобобеков Ҳ., Каримов Ш., Содиқов М., Усмонов Қ., Холбоев С., Шоймардонов И. Ўзбекистон тарихи. Қисқача маълумотнома. – Тошкент: Фан, 2007.

2.7. Маннонов Б. Ўрта Осиё ва Эрон элчилиқ муносабатлари тарихидан (XIX асрнинг биринчи чораги) // Эрон. Мақолалар тўплами. – Тошкент: Фан,

1977.

2.8. Бобоев Ҳ., Хидиров З ва бошқ. Ўзбек давлатчилиқ тарихи (II китоб). –Тошкент: Fan va texnologiya, 2009.

2.9. Бухоро: тарих саҳифалари. – Бухоро, 1999.

2.10. Воҳидов Ш. Қўқон хонлиги ва Бухоро амирлигида унвон ва мансаблар. –Т., 1996.

2.11. Воҳидов Ш., Қодиров А. Шарқнинг машҳур сулолалари. – Тошкент: Akademnashr, 2013.

2.12. Воҳидов Ш., Холиқова Р. Марказий Осиёдаги давлат бошқаруви тарихидан. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006.

2.13. Жадидчилик: ислохот, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. –Тошкент, 1999.

2.14. Исмоилов М., Шаропов А. Тарих атамалар луғати. –Тошкент: Akademnashr, 2013.

2.15. Маннонов Б. Ўрта Осиё ва Эрон элчилиқ муносабатлари тарихидан (XIX асрнинг биринчи чораги) // Эрон. Мақолалар тўплами. – Тошкент: Фан, 1977.

2.16. Ражабов Қ. Мустақил Туркистон фикри учун мужодалалар. – Тошкент, 2000.

2.17. Сагдуллаев А., Аминов Б. ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. 1-қисм. – Тошкент: Академия, 2000.

2.18. Саидов А., Таджиханов У., Одилқориев Х. Давлат ва ҳуқуқ асослари. Дарслик. – Тошкент: Шарқ, 2002.

2.19. Тарих шоҳидлиги ва сабоқлари. –Т., 2001.

2.20. Ўзбекистон давлатчилиги тарихи очерклари. – Тошкент, 2001.

2.21. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 2-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедия” Давлат илмий нашриёти, 2002.

2.22. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет муштамлакачилиги даврида. –Тошкент: Шарқ, 2000.

2.23. Усмонов Қ., Содиков М., Бурхонова С. Ўзбекистон тарихи.

Дарслик. –Т., 2005.

2.24. Файзулла Хўжаев ҳаёти ва фаолияти ҳақида янги мулоҳазалар, – Тошкент, 1997.

2.25. Хўжаев Ф. Бухоро инқилобининг тарихига материаллар. – Тошкент, 1997.

2.26. Ҳофиз Таниш ал-Бухорий. Абдулланом (Шарафномаи шоҳий). 1-ж. – Т., 1999.

2.27. Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2012.

III. Davriy matbuot nashrlari:

3.1. Мавлонов Ў. Бу йўллар кўп қадим йўллардир // Жамият ва бошқарув – Тошкент, 2001. –№ 2. –Б. 38-40.

3.2. Маннонов Б. Нодиршоҳнинг зурриёдини топинг... // Шарқшунослик. – 1991. – №2. – Б.90-102.

3.3. Шукуриллаев Ю. Қўшин бошқарув тарихидан // Жамият ва бошқарув. – 2006. – №2. –Б.48.

3.4. Мавлонов Ў. Қадимги йўллар ва йўлбўйи иншоотлари // Жамият ва бошқарув. – Тошкент, 2005. –№ 4. –Б. 86-88.

3.5. Мавлонов Ў. Лаъли Бадахшон ёки Ложувард йўли // Ижтимоии фикр. 2005. –№ 1. – Б. 136-140.

3.6. Мавлонов Ў. Ўрта Осиёнинг қадимги алоқа-савдо муносабатларида сув йўлларининг тугган ўрни // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. –Тошкент, 2007. –№ 2-3. – Б. 83-93.

3.7. Мавлонов Ў., Махкамова Д. Ўзбекистон ва Хитой қадимий алоқалари // Жамият ва бошқарув. 2003. – № 3. –Б. 64-68.

3.8. Хўжаев А. Фарғона водийсининг Хитой билан савдо алоқалари // Мозийдан садо. – Тошкент, 2005. –№ 1 (25). –Б. 46-47.

3.9. Шайдуллаев Ш. Б. Шеробод сардобаси // Ўзбекистонда Археологик тадқиқотлар. – Тошкент, 2004. – № 4. – Б. 196-197.

3.10. Эшов Б. Ўрта Осиё ва Қадимги Шарқ тарихий-маданий алоқалар
// Жамият ва бошқарув. – Тошкент, 2004. –№ 3. –Б. 51.